

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
FARG`ONA DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

Boshlang`ich ta`lim va sport tarbiyaviy ish yo`nalishi
14.17 -guruh bitiruvchisi Madrahimova (Kudratova)
Shoxista Xikmatilla qizining

**“Boshlang`ich sinflarda unli va undosh tovushlarni to`g`ri
talaffuz qilish va o`qishga o`rgatish metodikasi ”**

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: N.M.Quchqorova.

Farg`ona 2018

Bitiruv malakaviy ish kafedraning 2018-yil 30 – apreldagi 8-yig`ilishida muhokama qilingan va himoyaga tavsiya etilgan

Kafedra mudiri:

M.Abdupattoyev.

Taqrizchilar:

1. N.Quchqorova BTU kafedrasi o`qituvchisi
2. Yozyovon tumani
-maktab boshlang`ich sinf o`qituvchisi

MUNDARIJA

KIRISH.....4-bet

BIRINCHI BOB

Unli va undosh tovushlarni to`g`ri talaffuz qilish va o`qishga o`rgatish darslarini tashkil etishning nazariy va metodik asoslari

- 1.1.O`quvchilarni unli va undosh tovushlarni to`g`ri talaffuz qilish va o`qishga o`rgatishdagi muhim nazariy bilimlar.....8-bet
- 1.2. Savod o`rgatish davrida “ Alifbe “ darsligi va o`quvchilarning o`qishiga qo`yiladigan dastur talablari.....15-bet
- 1.3 Savod o`rgatish jarayonida o`quvchilarni unli va undosh tovushlarni to`g`ri talaffuz qilish va o`qishga o`rgatish usullari.....20-bet

IKKINCHI BOB

Savod o`rgatish davrida o`quvchilarni o`qishga o`rgatishda qo`llanadigan texnologiyalar

- 2.1. Savod o`rgatish tayyorlov davrida to`g`ri o`qish va yozishga o`rgatish ishlarini amalga oshirish usullari.....29-bet
- 2.2. Savod o`rgatish davrida o`quvchilarni o`qishga o`rgatishda kesma harflar va jadvallardan foydalanish.....34-bet
- 2.3. Savod o`rgatish davrida o`quvchilarni unli va undosh tovushlarni to`g`ri talaffuz qilish va o`qishga o`rgatish darslarini tashkil etish bo`yicha olib borilgan tajriba-sinov ishlari mazmuni va ularning natijalari.....48-bet
- XULOSA.....61-bet
- FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....65-bet

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbek xalqi juda qadim zamonlardayoq ilm - fanga katta e'tibor bilan qaragan va uni rivojlantirishga harakat qilgan. Ibn Sino, Beruniy, Al-Xorazmiy, Amir Temur, Ulug‘bek va boshqa ko‘plab allomalar ilm-fanni dunyoga tanitganlar. Ilm - ma'rifatga beqiyos hurmat bilan qaragan xalqimiz qanday qiyinchilik va to‘siqlar bo‘lmasin, o‘z farzandlarining savodli bo‘lishini orzu qilganlar, ularni yoshligidanoq maktabga o‘qishga berganlar.

Savod o‘rgatish kelajak avlod hayotida muhim ahamiyatga ega jarayondir. O‘quvchilarning savodi asosan “Alifbe” darsligi asosida amalga oshiriladi. Maktabda o‘qish va yozish «Alifbe» ga asoslangan holda 2- sentabrdan 1-yanvargacha davom etadi . Bu davrda o‘qish va yozuv o‘rgatiladi. So‘ngra o‘qish va yozish ko‘nikmasi takomillashtiriladi. Ana shunday muhim jarayon uchun “Alifbe” darsligi asos bo‘ladi.

Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo‘lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog‘liq.

Buning uchun har qaysi ota - ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko‘rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo‘lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta'lim va tarbiya ishini uyg‘un holda olib borishni talab etadi¹. Darhaqiqat, boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslarining asosiy vazifasi o‘quvchilarning o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirishdir. Lekin ba'zi o‘qituvchilar dars jarayonida og‘zaki suhbatga berilib ketib, o‘quvchilarining o‘qishni mashq qilishlariga e'tibor qaratmayapdilar. O‘qish quruq o‘qish bo‘lib, turli topshiriqlar asosida o‘qishni qiziqarli mashg‘ulotga aylantirmayapdilar. Shu bois, o‘qishni mashq qilish orqali o‘qish

¹ I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyati –engilmas kuch. T.: Ma'naviyat.2008. 87-bet.

sur'atini oshirishga yordam beradigan ish turlarini, topshiriqlar tizimini ishlab chiqish, ularni ta'lim jarayoniga tadbiq etish dolzarb muammolardan biridir. Ayniqsa, savod o'rgatish jarayoni juda mas'uliyatli davr sanaladi. Bu davrda o'quvchilarning o'qishlarini nazorat qilish, kamchiliklarni aniqlab, ularni bartaraf etish, o'quvchilarda o'qishga havas uyg'otish lozim. Chunki o'qish ko'nikmalarini egallamasdan biror fanga oid ma'lumotlarni o'zlashtirib bo'lmaydi.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq o'qish darsliklariga va metodik adabiyotlarda o'qitishning samarador usullarini ishlab chiqib, ta'lim jarayoniga tadbiq etish, yuqori natijalarga erishishga katta ahamiyat berila boshlandi.

Bugungi yosh avlod "Alifbe" darsligi asosida tovush va harfning farqini o'rganib boradi. Tovushni harfga, harfni tovushga aylantirish aqliy faoliyat orqali amalga oshiriladi yoki tovushni harfga, harfni tovushga «tarjima qilish» deb tushunish kerak. O'qitishning bu usuli tahlil-tarkib tovush metodi deyiladi. Tahlil-tarkib tovush metodi deganda nutqdan gapni, gapdan so'zni, so'zdan bo'g'inni, bo'g'indan so'z, so'zdan gap, gapdan nutq anglashiladi. Bu metod S.P. Redazubov tomonidan mukammal ishlangan. Bu usul o'zbek olimlaridan K. Abdullayeva, K.Qosimova, Y.Abdullayevalar tomonidan yoritilgan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qishga o'rgatish bo'yicha K.Qosimova, S.Matchonov, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva, Sh.Sariyev muallifligida oliy ta'lim talabalari uchun yaratilgan "Ona tili o'qitish metodikasi"² darsligida, T.Ashrapova, M.Odilovalarning pedagogika bilim yurtlari uchun nashr etilgan "Ona tili o'qitish metodikasi" darsligida boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi yoritilgan. Bundan tashqari, S.Matchonov, X. G'ulomova, M.Suyunov, H. Boqiyevalarning "Boshlang'ich sinf o'qish darslarida ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish" qo'llanmasida, S.Matchonov, X. G'ulomovalarning "Boshlang'ich ta'lim" jurnalida boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qishga o'rgatishga doir qator maqolalarida o'quvchilarning o'qish ko'nikmalarini

² K.Qosimova.S.Matchonov,X.G'ulomova.SH.Yo'ldosheva. SH.Sariyev. Ona tili ukitish metodikasi. T.,Noshir, 2009.

takomillashtirish borasida metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ularda o'qishning inson hayotidagi o'rni asoslab berilgan.

Boshlang'ich sinf o'qish darslarini tashkil etish bo'yicha T. G'afforova, X.G'ulomovalarning "1-sinfda o'qish darslari", T. G'afforova va boshqa mualliflar hamkorligida yaratilgan "2-sinfda o'qish darslari", M.Umarovanning "3-sinfda o'qish darslari" S.Matchonov, X.G'ulomova, Z. Doliyevlarning "4-sinfda o'qish darslari", S.Matchonov va boshqalar " Boshlang'ich sinf o'qish darslarida ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish" metodik qo'llanmalarida³ o'quvchilarni o'qitish bo'yicha metodik tavsiyalar berilgan.

Tadqiqotning obyekti. Savod o'rgatish davrida o'quvchilarni unli va undosh tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish va o'qishga o'rgatish jarayoni.

Tadqiqot predmeti. Savod o'rgatish davrida o'quvchilarni unli va undosh tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish va o'qishga o'rgatishning shakl va mazmuni.

Tadqiqotning maqsadi. Savod o'rgatish davrida o'quvchilarni unli va undosh tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish va o'qishga o'rgatish orqali fan asoslarini o'qib o'zlashtirishlarini ta'minlash.

Tadqiqot farazlari. Savod o'rgatish davrida o'quvchilarni o'qishga o'rgatish jarayonida o'quv faoliyatini tashkil etish va takomillashtirish bo'yicha didaktik jihatdan to'g'ri hamda maqsadga muvofiq tarzda amalga oshiriladigan metodlarni tadbiq etish ta'limning sifat va samaradorligini oshiradi.

Tadqiqotning vazifasi.

- Savod o'rgatish davrida o'quvchilarni o'qishga o'rgatish bo'yicha dastur talablarini va ilmiy-metodik adabiyotlarni o'rganish
- Savod o'rgatish davrida o'quvchilarning o'qish ko'nikmalarini oshirish usullarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning nazariy metodologik asosi. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi

³ S.Matchonov va b. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish. T., Yangiyul poligraf servis. 2009.

Qonunlari, ilg'or pedagoglarning zamonaviy maktablarda ta'limni rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan asarlari mazkur diplom ishining nazariy metodologik asosi hisoblanadi.

Tadqiqot metodlari: izlanish va tahlil qilish, ona tilidan o`quv dasturlari va darsliklarni o`rganib chiqish, o`qitish jarayonlarini kuzatib borish, o`qituvchilar va o`quvchilar bilan suhbat o`tkazish, o`quvchilar o`rtasida anketa, og`zaki so`rovlar ishlari olib borish;

- mavzu yuzasidan tajriba-sinov o`tkazish;

- tajriba-sinovdan olingan natijalarni tahlil qilish va umumlashtirish.

Tadqiqotning tajriba maydonlari.

Eksperimentlar Farg`ona viloyati Yozyovon tumanidagi 26-maktabning 4-sinflarida o`tkaziladi.

Tadqiqotning yangiligi.

- Boshlang'ich sinflarda unli va undosh tovushlarni to`g`ri talaffuz qilish va o`qishga o`rgatish jarayonida o`quvchilarning o`quv faoliyatini tashkil etish va takomillashtirish bilan bog`liq metodik ishlarni ishlab chiqildi;

- o`quvchilar bilimini uzluksiz nazorat qilish usuli ishlab chiqildi;

- didaktik o`yinlarning turli shakl va mazmunli variantlari yaratildi va amaliyotga tatbiq qilindi;

- o`quvchilarning ona tilidan o`quv faoliyatini tashkil etish va takomillashtirish bo`yicha yaratilgan va tavsiya etilayotgan metodik ishlar ta'lim-tarbiya jarayonining sifat va samaradorligini oshiradi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati.

Boshlang'ich sinflarda unli va undosh tovushlarni to`g`ri talaffuz qilish va o`qishga o`rgatish yuzasidan ishlab chiqilgan metodik ishlar yordamida darsning tashkil etilishi bilim olishni yengillashtiradi, o`quvchilarni mustaqil fikrlashga o`rgatadi; Savod o`rgatish davrida o`quvchilarni o`qishga o`rgatish ta'limning keyingi bosqichlarida fanlarni yaxshi o`zlashtirilishini ta'minlaydi.

Bitiruv malakaviy ishimizning tarkibi quyidagilardan iborat: "Kirish", 2 bob, "Xulosa" va "Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati", 65 bet, 12380 ta so`zdan iborat.

BIRINCHI BOB

Unli va undosh tovushlarni to`g`ri talaffuz qilish va o`qishga o`rgatish darslarini tashkil etishning nazariy va metodik asoslari

1.1. O`quvchilarni unli va undosh tovushlarni to`g`ri talaffuz qilish va o`qishga o`rgatishdagi muhim nazariy bilimlar.

Endigina maktabga qadam qo`ygan bolaga savod o`rgatish judayam murakkab va mas`uliyatli jarayon. Savod o`rgatishda asosiy o`quv quroli "Alifbe" darsligi hisoblanadi. Dastlab maktabga qadam qo`ygan bolaning uzoq davom etadigan mashg`ulotlarga ko`nikishi qiyin bo`lib, tez toliqadi. Chunki, u kechagina o`ynab yurgan bola edi. O`yinqaroq bolalarni ilm olamiga olib kirishda asosiy manbaa "Alifbe" darsligidir. "Alifbe" darsligi barcha millatlarda mavjud bo`lib, turlicha nomlanadi. Masalan, ruslarda "Bukvar", qirg`izlarda "Alippe" kabi. Grafikadagi harf-tovushlar soni, murakkablik jihatlariga qarab darsliklarda soatlar belgilanadi. Masalan, rus tilida 33 ta harf borligi uchun 1,2,3-chorak davomida "Bukvar", o`zbek tili alfabitida 29 ta harf borligi uchun 2 chorak davomida "Alifbe" darsligi o`rganiladi. Bu davr savod o`rgatish jarayoni xisoblanadi. Savod o`rgatish davrida asosiy darslik "Alifbe" kitobidir.

"Alifbe" darsligini pedagogik-psixologik jihatdan ahamiyatini o`rganib chiqsak.

"Alifbe" darsligi 6-7 yoshli bolalarning fiziologik va ruhiy holatlarini hisobga olgan holda tuziladi.

Darsliklarni, jumladan, savod o`rgatishning asosi bo`lgan "Alifbe" darsligini takomillashtirish davr talabidir. Takomillashtirish darslikning metodik qurilishiga, mazmuniga, g`oyaviy yo`nalishiga birdek aloqador bo`lib, bunda avvalo didaktikaning umumiy hamda xususiy mezonlariga asoslaniladi.

Umimiy mezonlariga:

-g`oyaviylik;

-bayonning ilmiyligi, tushunarligi;

-ko`rsatmalilik;

-onglilik;

-o`quv materialining hayot bilan bevosita aloqadorligi;

-bolalar yoshi va dunyoqarashi, o`ziga xos ruhiy xususiyatlari bilan bog`liq qator didaktik talablar kabi.

O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995- yil 6,7- mayda o`tgan majlisida «Lotin yozuviga asoslangan o`zbek alifbosi» hamda uni hayotga joriy qilish to`g`risidagi qonun va qarorga o`zgarishlar kiritildi. Bu esa savod chiqarishda ya'ni o`qish-yozishga o`rgatishda ancha qulayliklarga olib keldi. Chunki kirilldagi 35 harf o`rniga 26 harf, 3 nutq tovushi (ng, ch, sh) harf birikmasi, hammasi bo`lib 29 ta harf va “tutuq” belgisi qabul qilindi. Shu harflarning 6 tasi unli tovushni, 24 tasi undosh tovushlarni bildiradi. Kirilldagi 10 ta unli harf 6 taga keltirildi.

Dastur talablarini to`liq bajarish va amalga oshirish uchun, birinchi navbatda, o`qish ko`nikmalarini to`g`ri va puxta egallash va takomillashtirib borish zarur. O`qish ko`nikmalari savod o`rgatish jarayonida shakllanadi, o`qitishning keyingi bosqichlarida takomillashtiriladi.

O`qish malakalarining sifatlariga badiiy asar matnini to`g`ri, tez, ongli va ifodali o`qish kiradi. O`qish darslarida o`quvchilarning o`qish malakalari shakllantiriladi va takomillashtiriladi.

O`qish malakasining sifatleri o`zaro bog`liq bo`lib, ularning asosi ongli o`qish hisoblanadi. O`quvchi matnni tez va to`g`ri o`qisa-yu, anglab o`qimasa yoki uning tez o`qishi natijasida o`zi va boshqalar matn mazmunini tushunmasa, to`g`ri o`qisa-yu, o`ta sekin o`qisa, nutq birliklari orasida to`xtamlarga e'tibor bermasa, matnda ifoda etilayotgan fikr tushunilmaydi. Muayyan tezlikda va to`g`ri o`qish ongli o`qishga xizmat qiladi, to`g`ri, tez va ongli o`qish esa ifodali o`qishning asosi hisoblanadi.

O`qish malakalarini egallash maktabda o`qitiladigan barcha predmetlarni muvaffaqiyatli o`zlashtirishning muhim sharti hisoblanadi. O`qish o`quv faoliyatning asosiy turi bo`lib, o`quvchilarni g`oyaviy - siyosiy, aqliy, estetik va

nutqiy tomondan rivojlantirish uchun juda katta imkoniyat yaratadi. Bu jarayon esa o'qish malakalarini o'stirish va takomillashtirish ustida tizimli va maqsadga muvofiq ishlashni talab qiladi.

O'qish malakasini egallash ancha murakkab bo'lib, uni shakllantirish uzoq vaqtni talab etadi. Ruxshunos olim T. G. Yegorov o'zining «Ocherki psixologi obucheniya detey chteniyu» nomli asarida o'qish malakalarini shakllantirish jarayonini uch bosqichga ajratadi: analitik bosqich, sintetik bosqich va avtomatlashgan bosqich. Analitik bosqich savod o'rgatish davriga to'g'ri keladi, bunda so'zni bo'g'in - harf tomonidan tahlil qilish va bo'g'inlab o'qish malakasi shakllantiriladi. Sintetik bosqich uchun so'zni sidirg'a o'qish xarakterlidir; bunda so'zni ko'rish orqali idrok qilish va uning talaffuzi so'z ma'nosini anglash bilan asosan mos keladi. O'qish so'z ma'nosini idrok qilish bilan amalga oshadi. O'quvchilar sintetik bosqichga 3-sinfda o'tadilar. Bundan keyingi yillarda o'qish avtomatlasha boradi.

O'qish darslarida asar ustida ishlashni shunday tashkil etish kerakki, asar mazmunini tahlil qilish o'qish malakalarini takomillashtirishga yo'naltirilgan bo'lsin.

O'qish ko'nikmalaridan biri to'g'ri o'qishdir. To'g'ri o'qish deganda xato qilmasdan, yanglishmasdan o'qish tushuniladi, ya'ni to'g'ri o'qish so'zning tovush-harf tarkibini, grammatik shakllarni buzmasdan, so'zdagi tovush yoki bo'g'inni tushirib qoldirmay, boshqa tovushni qo'shmay, harflar o'rnini almashtirmay, aniq talaffuz qilib, so'zga urg'uni to'g'ri qo'yib o'qish hisoblanadi. M. Odilova va T. Ashrapovalar «Adabiy talaffuz me'yorlariga qo'yilgan barcha talablar to'g'ri o'qish ko'nikmasiga ham taalluqlidir», - deb ta'kidlaydilar. Rus metodisti Yakovleva to'g'ri o'qishga quyidagicha ta'rif bergan: «To'g'ri o'qish - bu materialni tovush tomondan xatosiz va bir tekisda ravon nusxa ko'chirishdir». Demak, to'g'ri o'qish so'zning tovush tarkibini, grammatik shaklini buzmasdan adabiy - orfoepik me'yorlar asosida o'qishdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida idrok etish, talaffuz qilish va matn mazmunini tushunish o'rtasida puxta sintez yo'q bo'lgani uchun ular o'qishda xatoga yo'l qo'yadilar. Bu esa matn mazmunini tushunishni qiyinlashtiradi.

To'g'ri o'qish so'zning uzun -qisqaligiga, o'quvchining so'z boyligiga, ya'ni so'zning leksik ma'nosini qanchalik bilishiga hamda so'zning bo'g'in va morfemik tarkibiga bog'liq. O'quvchilar ko'pincha quyidagi sabablarga ko'ra xatoga yo'l qo'yadilar:

1. So'zni talaffuz qilish bilan uning ma'nosini tushunish o'rtasida puxta sintez bo'lmagani uchun bola so'zning oldin tovush tomonini ko'radi, uni talaffuz qilishga oshiqadi. So'zning ma'nosini esa e'tibordan chetda qoldiradi.

2. So'z ko'p bo'g'inli bo'lib, bola uni oldin eshitmagan bo'lsa, xatoga yo'l qo'yadi.

3. So'zning ma'nosini bilmaslik tufayli xatoga yo'l qo'yadi.

4. Tez o'qiyman deb xatoga yo'l qo'yadi.

5. To'g'ri o'qish yorug'likka va yorug'likning tushishiga ham bog'liq.

6. Undosh tovush so'zning o'rtasida va oxirida kelgan yopiq bo'g'inli so'zlarni o'qishda qiynaladilar.

Xato o'qishning oldini olish uchun quyidagilar e'tiborga olinadi:

1. Matnni o'qitishdan oldin undagi o'qilishi qiyin so'z, birikma va gaplarni aniqlash va ular ustida ishlash usullarini belgilab olish. Tuzilishi murakkab so'zlarni bo'g'inlab o'qilishini mashq qildirish.

2. Matnni o'qishdan oldin uning mazmunini tushunishni qiyinlashtiradigan so'zlarning lug'aviy ma'nosini tushuntirish. So'z ma'nosini izohlash usullarini aniqlash.

3. Vazifalarni aniq va tushunarli qilib berish.

4. Matnni diqqat - e'tibor bilan o'qishlari uchun sharoit yaratish.

5. Oldin ichda o'qitish, so'ng ovoz chiqarib o'qitish.

6. O'qitishda o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, ya'ni matnni oson, o'rtacha qiyinlikda va qiyin o'qiladigan o'rinlarini belgilab olib, unga kuchi yetadigan o'quvchilarga oldindan taqsimlab berish.

7. O'quvchilarning o'qishini muntazam tekshirib turish.
8. Xatoning xarakteriga qarab, uni metodik tomondan to'g'ri tuzatish yo'lini aniqlash.
9. O'quvchilarni xato qilish mumkin bo'lgan o'rindan ogohlantirib turish.
10. Xat cho'pdan foydalanish.
11. Xato o'qish o'quvchining shaxsiy ko'ruv sezgisiga bog'liq bo'lsa, bu jihatni ham hisobga olish.

O'qituvchining tuzilishi murakkab so'zlarni oldindan xattaxtaga yoki kartonga bo'g'inlarga bo'lib yozib qo'yib, o'quvchilarga ovoz chiqarib birgalikda o'qitishi yaxshi natija beradi.

O'quvchilar yo'l qo'ygan xato ikki xil yo'l bilan tuzatiladi:

1. O'quvchi so'z oxiridagi qo'shimchani noto'g'ri o'qisa, o'quvchini o'qishdan to'xtatmasdan xatoni to'g'rilash mumkin.
2. Xato o'qish bilan gaplarning mazmuni buzilsa, qayta o'qitish usulidan foydalaniladi. Bunda o'quvchiga o'qigan matni yuzasidan savol berilsa, o'quvchi e'tiborli bo'lib qayta o'qiydi.

O'qish ko'nikmalaridan biri tez o'qishdir. Tez o'qish me'yoriy tezlikda o'qish bo'lib, bunda o'qish sur'ati matnning mazmunini tushunishdan ajralib qolmasligi kerak. O'qish tezligi matnni tushunish tezligi bilan muvofiq ravishda o'sib borishi lozim. O'qilayotgan asar mazmunini o'zlashtirishni, matn mazmunini ongli idrok etishni ta'minlaydigan o'qish tez o'qish deyiladi.

O'qish sifatlarini yaxshi o'zlashtirgan holda o'quvchilarning o'qish sur'ati bir-biridan farq qiladi. Bu dastur talablarini bajarmadi, degan gap emas. Og'zaki nutq tempiga to'g'ri keladigan o'qish sur'ati normal tezlik hisoblanadi. Chunki o'ta tez ham, o'ta sekin o'qish ham matn mazmunini o'zlashtirishni qiyinlashtiradi.

O'qish tezligi bir daqiqada o'qiladigan so'zlar soni bilan belgilanadi. O'qish dasturida 1-sinfning 2-yarim yilligida o'qish sur'ati 20-25 so'z (notanish matnni o'qish tezligi ham 20-25 so'z); o'quv yili oxirida 25-30 so'z; 2-sinfning 1-yarim yilligida matnni o'qish tezligi 30-35 so'z; 2-yarim yilligida 40-50 so'z; 3-sinfning 1-yarim yilligida 60-70 so'z; 2-yarim yilligida 70-80 so'z; 4-sinfning 1-

yarim yilligida ichda ovozsiz 110-130 soʻz, ovozli oʻqishda 90-100 soʻz deb belgilangan.

Tajribalar shuni koʻrsatadiki, bir daqiqada bola 250 soʻzli matnni oʻqisa, undagi 200 ta soʻzni eslab qolar ekan. Agar harflab, boʻgʻinlab oʻqisa, uning diqqat markazida soʻz emas, boʻgʻin boʻladi. Natijada u soʻzlarni eslab qola olmaydi.

Bu 4-sinf oʻquvchilarining oʻqish tezligiga tatbiq etilsa, 125 soʻzdan 100 soʻzni eslab qoladi. Bu esa yuqori koʻrsatkichlarga erishish imkonini beradi. 4-sinfda bir daqiqada 170-180 ta soʻz oʻqiydigan oʻquvchilar ham bor.

Oʻqish tezligi toʻrt yil davomida toʻgʻri va ongli oʻqish bilan bogʻliq holda asta ortib boradi. Oʻqish tezligini tekshirganda oʻqituvchi oʻqiladigan materialning xarakterini, yaʼni gʻoyaviy-mavzuviy murakkabligini, soʻz va gaplarning tuzilishini, ularning bolalar nutqida qay darajada ishlatilishini, oʻqishning toʻgʻri va ongli boʻlishini hisobga oladi. Oʻquvchilarning oʻqish tezligi har xil boʻladi, albatta. Oʻqituvchining vazifasi barcha oʻquvchilarning oʻqish tezligini, iloji boricha bir xillikka keltirishdan iborat. Oʻqish surʼatini oshirishda tez aytishlarni, maqollarni yod oldirish va matnni ovoz chiqarib oʻqishni mashq qilish kabilar samarali usullardan hisoblanadi.

Oʻqish koʻnikmalaridan biri ongli oʻqishdir. Ongli oʻqish yaxshi oʻqishning asosiy sifati hisoblanadi. Ongli oʻqish oʻqilgan matnning aniq mazmunini, asarning gʻoyaviy yoʻnalishini, obrazlarini va badiiy vositalarining rolini tushunib oʻqish, shuningdek, asarda tasvirlangan voqea - hodisalarga oʻz munosabatini ifodalay olishdir. Ongli oʻqish oʻz navbatida, oʻquvchilarning zarur hayotiy tajribasiga, soʻzning leksik maʼnosini, gapda soʻzlarning bogʻlanishini tushunishga va bir qator metodik shartlarga bogʻliq. Hozirda ongli oʻqish atamasi adabiyotlarda va maktab tajribasida ikki maʼnoda: birinchidan, oʻqish jarayonini egallashga nisbatan oʻqish texnikasi maʼnosida, ikkinchidan, keng maʼnodagi oʻqishga nisbatan oʻqish sifatlaridan biri maʼnosida qoʻllanadi.

Matnni ongli oʻqish uchun oʻquvchilar toʻgʻri, meʼyorida oʻqishni egallagan boʻlishlari va oʻqish jarayonida qiynalmasligi talab etiladi. Oʻquvchilar matnni ongli oʻqishlari uchun matn mazmuni va badiiy vositalari jihatidan tahlil qilinadi.

Ongli o‘qishning muhim sharti asar qurilishi va mazmunini tushunish hisoblanadi. O‘qituvchi ongli o‘qishni matnni ifodali o‘qishga (agar ovoz chiqarib o‘qilsa) va asar mazmuni yuzasidan berilgan savollarga javobning to‘g‘riligiga, asar voqealari va qahramonlarning xatti-harakatiga bildirgan munosabatiga qarab baholaydi. Ongli o‘qish va ifodali o‘qish bir-birini taqozo qiladi, ammo bir-biriga aynan o‘xshamaydigan o‘qish sifatlaridir.

O‘qish ko‘nikmalaridan biri ifodali o‘qishdir. Ifodali o‘qish intonatsiya – ohang yordamida asarning g‘oyasi va jozibasini to‘g‘ri, aniq, yozuvchi niyatiga mos ravishda ifodalay bilishdir. «Ifodali o‘qish adabiyotni aniq va ko‘rgazmali o‘qitishning dastlabki va asosiy shaklidir», deb ta’kidlaydi metodist olimi M.A.Ro‘bnikova. Demak, «Ifodali o‘qishning asosiy vazifasi asarning mazmunini va emotsionalligini intonatsiya orqali o‘quvchilarga ko‘rgazmali qilib ko‘rsatishdir. Ifodali o‘qishning asosiy tamoyili o‘qiladigan asar g‘oyasi va badiiy qimmatini chuqur tushuntirishdir».

Intonatsiya og‘zaki nutqning birgalikda harakat qiluvchi elementlari: urg‘u, nutq tempi va ritmi, pauza, ovozning past-balandligining yig‘indisidir. Bu elementlar bir-biriga ta’sir etadi va hammasi birgalikda asarning mazmunini, g‘oyasini, qahramonlarning turli kayfiyatini, ichki kechinmalarini ifodalaydi.

O‘quvchilar ifodali nutq asoslarini egallashlari uchun muhim shartlar quyidagilardan iborat:

1. Nutq jarayonida nafasni to‘g‘ri olish va to‘g‘ri taqsimlay bilish.
2. Har bir tovushning to‘g‘ri artikulyatsiyasi va aniq diktsiya (burro gapirish) malakasini egallash.
3. Adabiy talaffuz me’yorlarini egallash.

Bu shartlar faqat ifodali o‘qishgagina emas, balki ifodali nutqqa, ya’ni hikoya qilishga ham taalluqlidir. O‘quvchining har qanday og‘zaki hikoyasi ifodali bo‘lishi zarur.

Ifodali o‘qishning asosiy vositalaridan biri ovozdir. Ovoz nafas bilan uzviy bog‘lanadi. Shuning uchun o‘qituvchi bolalarning ifodali nutqi ustida ishlashni talaffuz qilayotganda o‘z nafasini boshqara olish va ovozdan to‘g‘ri foydalanishga

o'rgatishdan boshlaydi. Ovoz kuchi baland-pastlik, uzun-qisqalik, tezlik (temp), yoqimli-yoqimsizlik xususiyatlari bilan xarakterlanadi. O'quvchilar matn mazmuniga qarab, baland yoki past ovozda o'qish(gapirish)ga, nutqda tez, o'rtacha yoki sekin tempni tanlashga, biror tuyg'uni ifodalashga o'rganadilar. Ifodali o'qishga o'rgatishda o'quvchilar pauza va logik urg'u bilan ham tanishtiriladi.

Ifodali o'qishga tayyorlanish shartli ravishda uch bosqichga bo'linadi:

1. Asarning aniq mazmunini tushunish, unda qatnashgan shaxslarning xatti-harakatini tahlil qilish, asarning g'oyasini belgilash, ya'ni asarning g'oyaviy-mavzuviy asosini, uning obrazlarini badiiy vositalari bilan yaxlit holda tushunish.

2. Matnning qaysi joyida to'xtam (pauza) qilishni, mantiqiy urg'uning o'rini, o'qish tempini belgilab olish.

3. O'qishni mashq qilish, muallif fikrini, uning tasvirlangan voqea-hodisalarga va qatnashuvchi shaxslarga munosabatini ovoz bilan ifodalay olish uchun matnni qayta o'qish.

Asarning mazmuni va g'oyaviy yo'nalishini tahlil qilish ifodali o'qishga o'rgatish bilan bog'lab olib boriladi. Ifodali o'qishga o'rgatishda matn mazmunini tushunish, muallif hikoya qilgan voqealarga o'z munosabatini bildirish asosiy vazifa hisoblanadi. O'quvchilarda ifodali o'qish malakasini shakllantirish uchun asarni o'qituvchining ifodali o'qishi muhim ahamiyatga ega.

1.2. Savod o'rgatish davrida " Alifbe " darsligi va o'quvchilarning o'qishga qo'yiladigan dastur talablari

Tarixga nazar tashlasak, O'rta Osiyoda ma'naviyat-ma'rifat, madaniyatni rivojlantirish, milliy qadriyatlar hamda an'analarni saqlab qolishda jadidchilik harakatining ahamiyati katta bo'lgan. "Jadid" arabcha so'z bo'lib, "yangi usul" ma'nosini anglatadi.

Turkistonda ochilgan rus-tuzem maktablari savod o'rgatishda ma'lum darajada ijobiy rol o'ynadi. Jadidlar "hijo" usulidan voz kechib, "tovushli usul"ni qo'llashdi. Bunda alifboning har bir harfiga muayyan tovush muvofiq kelgan bo'lib, shu tufavli o'zlashtirish tezligi ancha oshar edi.

Rus-tuzem maktablarinng o`zbekcha sinflarida o`zbekcha xat-savod o`rgatish metodi 1900- yildan boshlab asta-sekin isloh qilindi. Hijo metodidan tovush metodiga o`tildi. 1900- yillardan rus-tuzem maktabi o`zbekcha sinflarining peshqadam muallimlari tovush metodi asosida tuzilgan tatarcha alifbedan foydalanganlar. Bu kitobning tili va mazmuni o`zbekcha sinflarga mos kelmasdi.

Birinchi marta tovush metodi asosida toshkentlik Saidrasul Saidazizov 1902 yilda "Ustodi avval"ni yaratdi⁴. "Ustodi avval" nashr qilingandan keyin o`zbekcha xat- savod o`rgatishda yangi davr boshlandi. Tovush metodi savod o`rgatishning eski usulidan tamomila farq qilib, o`qitishni osonlashtirdi, ta'limni bola tushunadigan, anglaydigan ta'limga, faol ta'limga aylantirdi.

"Ustodi avval" 3 bo`limdan iborat: 1-bo`lim, hozirgi atama bilan ataganimizda, alifbe davridir.

Muallif bu bo`limda arab alfavitidagi harflarni alfavit tartibida emas, balki harf orqali ifodalangan tovushning talaffuzi oson-qiyinligini, harflarning yozilishi sodda yoki murakkabligini e'tiborga olgan. Muallif har bir harfning yozuvda bir necha xil shaklda kelishi xat-savod o`rgatishni qiyinlashtirishini hisobga olgan. Alifbe davrining boshida deyarli har doim bir xil shaklda qo`llanadigan harflarni bergan. Shakli yozilish o`rniga qarab turlicha bo`ladigan harflarning so`z boshida, so`z o`rtasida, so`z oxirida va alohida yozilish shaklini berib, ularga mos misollar keltirilgan. Masalan, "q" harfini tanitish uchun qor, uyqu, oq so`zlarni, "g" harfini tanitish uchun g`or, uyg`oq, tog` so`zlarini tanlagan. Muallif soddadan murakkabga tamoyiliga amal qilib, alifbe davrini asta-sekin murakkablashtira borgan. Kitobning alifbe qismiga, asosan, o`zbek tilining lug`at qismidagi so`zlardan tanlab olgan..

⁴Qosimova K., Matjonov S., G`ulomova X., Yo`ldosheva Sh., Sariyev Sh. Boshlang`ich sinflarda ona tili o`qitish metodikasi.T., TDPU. 2009. 20-bet.

"Ustodi avval"ning 2-bo`limi alifbedan keyingi davrdir. Bu bo`limda hikoya, masal va 50 maqola berilgan. Ularning ayrimlarida bilim targ`ib qilinsa, boshqalari tarbiyaviy mazmunda.

S. Saidazizov kitobining 3-bo`limini "Alifboi Qur'on" deb atagan va o`z oldiga bolalarga "Qur'on"ni tushunib olishga o`rgatishni maqsad qilib qo`ygan.

Buyuk mutafakkir Mahmudxo`ja Behbudiy ham yangi maktablar uchun "Risolayi asbobi savod" ("Savod chiqarish kitobi".1904y) darsligini yaratgan.

Bundan tashqari Abdulla Avloniy «Usuli jadid» maktablari uchun to`rt qismdan iborat «Adabiyot yoxud milliy she`rlar» hamda «Birinchi muallim» (1912), «Turkiy guliston yoxud axloq» (1913), «Ikkinchi muallim» (1915), «Maktab gulistoni» (1917) kabi darslik va o`qish kitoblari yaratdi. Asrimiz boshlarida yuqoridagilar yangi maktablar uchun yozilgan alifbelar vazifasini o`tar edi. Shular orasida Abdulla Avloniyning «Birinchi muallim» i ham o`ziga xos o`ringa ega. «Birinchi muallim» 1917- yil 4 marta nashr etilgan. Avloniy uni yozishda mavjud darsliklarga, birinchi navbatda Saidrasul Aziziyning «Ustozi avval» iga suyanadi (dars berish jarayonida orttirgan tajribalaridan samarali foydalanadi).

Abdulla Avloniyning «Ikkinchi muallim» kitobi «Birinchi muallim» kitobining uzviy davomidir. Biz birinchi kitobini shartli ravishda alifbe deb, ikkinchi kitobini xrestomatiya deb atasak bo`ladi.

Kitob maktabni olqishlovchi she`r bilan boshlanadi.

Maktab sizni inson qilur,

Maktab hayot ehson qilur.

Maktab g`amini vayron qilur,

G`ayrat qilib o`qing, o`g`lon!

Maktabdadur ilmu kamol,

Maktabdadur husnu jamol.

Maktabdadur milliy hayol,

G`ayrat qilib o`qing, o`g`lon!

Bu she'rdavloniy maktabni insonning najot yo'li, hayotning gulshani, kishilarni kamolot sari safarbar qiluvchi kuch, deb maqtaydi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, buyuk shaxslar doimo o'z xalqini ilmi bo'lishida asosiy manbaa "Alifbe" ekanligini anglab, savod o'rgatishga doir kitoblarni sifatini oshirishga harakat qilishgan.

Boshlang'ich ona tili ta'limining davlat ta'lim standrti va o'quv dasturining "Boshlang'ich ta'lim sohalarining maqsad va vazifalari"da quyidagilar belgilab berilgan: "Ona tili ta'limi bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirishga, erkin fikrlay olishi, o'z galar fikrini anglashi, o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olishi, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o'rinda ona tili ta'limiga o'quv fani emas, balki, butun ta'lim tizimini uyushtiruvchi ta'lim jarayoni sifatida qaraladi"

O'quvchilar o'zlashtirishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalari"da 1-sinfda quyidagilar belgilangan: "hikoya, she'r, ertak, topishmoq, maqol, rivoyat, tez aytish janrlarini farqlash; she'riy va nasriy asarlarni farqlash;badiiy asar mavzusini anglash" bilimi, "o'qilgan matndagi so'zlarning ma'nolarini izohlay olish; o'qilgan matn mazmunini ko'rgazmalar vositasida to'liq qayta hikoyalash; tayyor reja asosida asarni to'liq qayta hikoyalay olish; asar qahramonlarining xatti-harakatlarini aniqlash va elementar baholay olish"ko'nikmalari, so'z tarkibida tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish; so'zlarni bo'g'inlab to'g'ri o'qish; hikoya, she'r, ertak, topishmoq, maqol, rivoyat, tez aytish janrlaridagi asarlarni ifodali o'qish; minutiga 25-30 so'zni o'qish; o'qigan asari yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini elementar bildira olish; o'quv yili yakunida 5 ta she'rni yoddan aytib bera olish"malakalari".

Savod o'rgatish jarayoni ikki davrni: alifbogacha tayyorlov davri va alifbo (asosiy) davrga ajratiladi. Bu ikki davr ichida bolalarning fonematik eshitish qobiliyatlari o'stiriladi, o'quvchilarning atrof-muhit haqidagi tasavvurlari boyitiladi, nutqi o'stiriladi.

Savod o`rgatish darslari o`quvchilarning umumiy kamolotiga, ularda do`stlik, o`rtoqlik kabi milliy qadriyatlarni shakllantirish, jamoa ichida o`zini boshqarish, mehnatsevarlik, halollik, rostgo`ylik, o`qishga ongli munosabatda bo`lish kabi ijobiy xususiyatlarni tarbiyalashga ko`maklashuvi lozim.

Savod chiqarish takomillashgan hozirgi zamon analitik-sintetik tovush metodi vositasida amalga oshiriladi hamda o`quvchilar nutqini rivojlantirishni nazarda tutadi. Darsda o`quvchilar gapni so`zlarga, so`zni bo`g`inlarga, bo`g`inni tovushlarga ajratadilar, so`zdagi tovushlarni tartibi bilan aytishni o`rganadilar, o`rganilgan tovushlarni o`zaro bog`lab so`z tuzish va o`qish yuzasidan mashq qiladilar. Bolalar tovushlarni yozuvda harf bilan ifodalash, harflardan bo`g`in va so`z tuzishga, ularni o`qishga o`rganadilar. Gap va bog`lanishli matnni ongli, to`g`ri, bo`g`inlab ravon o`qish, so`ngra so`zni butunicha sidirg`a o`qish malakasini egallaydilar.

O`qish va yozishga o`rgatish darslarida bolalar ruhiyatini hisobga olgan holda ish turlarini mukammallashtirish talab etiladi, "Alifbe", tarqatma material va metodik qo`llanmalarda berilgan didaktik o`yinlardan foydalanib, o`qishga o`rgatiladi.

Alifbe davrida o`qishga o`rgatish tahlil-tarkib (analitik-sintetik) tovush usulida amalga oshiriladi. Savodga o`rgatishning tahlil-tarkib usuliga ko`ra matndan gap, gapdan so`z, so`zdan bo`g`in va tovush, yoki aksincha, tovush → bo`g`in → so`z → gap → matn uzviy aloqada butundan bo`lakka, bo`lakdan butunga qarab tahlil va tarkib qilinadi. Tarkib o`qish demakdir.

"Alifbe" darsligida berilgan yangi so`zlar matn, hikoyacha va she`rlardan foydalanib, o`quvchilarni so`z ma`nosi bilan atroflicha tanishtirish, she`riy va nasriy matnlarni yodlatish, qayta hikoyalashga e`tibor beriladi.

Savod o`rgatish dasturi talabiga ko`ra bu davrda o`quvchilar, asosan, quyidagi tushuncha, malaka va ko`nikmalarni egallaydilar:

- o`quv predmeti mazmuni asosida tashkil etiladigan dars haqidagi amaliy ko`nikma; darsning muayyan vaqt oralig`ida davom etishi; dars jarayonida o`quvchining tutgan pozitsiyasi haqida tushuncha;

- rasm mazmunini anglash, rasm mazmuni asosida mantiqiy izchillikka ega bo`lgan matn tuzish;
- darslik bilan ishlash, og`zaki nutq haqida tushuncha;
- yozma nutq, gap haqida tushuncha;
- so`z va bo`g`in haqida tushuncha;
- unli va undosh tovush haqida tushuncha;
- maktab partasida to`g`ri o`tirish;
- darslikdan foydalanishga oid ilk o`quv ko`nikmalarini shakllantirish.

Alifbe davri o`qishga o`rgatish unli va undosh tovushlar, ularning talaffuziga xos farqlanish haqida ma`lumot berish, harf va tovush munosabatiga oid tushunchalar bilan o`quvchilarni tanishtirish, kesma harf va bo`g`inlar asosida so`z hosil qilish, tuzilgan so`zlarni to`g`ri o`qish, so`zlarni avval bo`g`inlab, so`ngra bo`g`inlab ravon o`qishga o`rgatish, tinish belgilariga rioya qilib, ifodali o`qishga o`rgatish, o`qish jarayonida amal qilinishi lozim bo`lgan gigiyena qoidalariga rioya qilishga o`rgatish orqali amalgam oshiriladi.

1.3.Savod o`rgatish jarayonida o`quvchilarni unli va undosh tovushlarni to`g`ri talaffuz qilish va o`qishga o`rgatish usullari

Ma'lumki, savod o`rgatish jarayonidagi o`qish darslarining asosiy vazifasi o`quvchilarga tovush va harfni tanishtirish, ularning to`g`ri talaffuzini o`rgatish orqali bolalarda to`g`ri, ongli, ifodali o`qish ko`nikmalarini shakllantirishdan iborat. Shuningdek, o`quvchilar lug`atini boyitish, bog`lanishli nutqini o`stirish, bilimni boyitish, tafakkurini shakllantirish, eshitish, qabul qilish sezgisini o`stirishda ham bu davr mas'uliyatligi bilan alohida o`rin tutadi.

Tayyorgarlik davri o`qishga o`rgatish uchun zamin hozirlaydi. O`qishga o`rgatish uchun, avvalo, o`quvchi tovush va harf bilan yaxshi tanishtirilishi lozim. Tovush va harf bilan tanishtirishda bo`g`indan tovushni ajratish tamoyiliga rioya qilinadi. Harf bilan tanishtirish bir necha xil yo`nalishda amalga oshirilishi mumkin:

1. Mazmunli rasm yuzasidan savol-javob usuli bilan bog'lanishli hikoya tuzdiriladi. Undan kerakli gap, so'ng kerakli so'z ajratib olinadi, so'ngra so'z ustida yuqoridagi kabi tahlil ishlari uyushtiriladi.

2. So'z asos qilinib, analitik mashqlar yordamida o'rganiladigan tovush ajratib olinadi. Masalan: oy. O'qituvchi oy rasmini ko'rsatadi, o'quvchilar uning nomini - so'zni aytadi. O'qituvchi o tovushini cho'zib (o-o-o-y) aytadi va qaysi tovushni cho'zib aytayotganini o'quvchilardan so'raydi. O'quvchilar o tovushini aytgach, uning xususiyalari haqida savol-javob o'tkaziladi. O tovushli so'zlar o'ylab toptiriladi. Shundan so'ng o harfi kesma harfdan yoki rasmi alifbodan ko'rsatiladi. Bunda o harfining shaklini esda olib qolishlariga alohida e'tibor qaratiladi.

3. O'rganilgan harflar ichiga bugun o'rganiladigan harf aralashtirib qo'yiladi, bolalar uning ichidan notanish harfni ajratadilar, so'ng o'qituvchi bu harf ifodalaydigan tovushni aytadi. O'quvchilar tovushning xususiyatlarini aytadilar. Shu harfni kesma harflar ichidan topib, kitob sahifasidan, rasmi alifbodan ko'rsatadilar. Shu tariqa tovush-harf bilan tanishtirilgach, o'qishga o'rgatish ustida ishlanadi.

O'qishga o'rgatishda bo'g'in asos qilib olinadi. Buning uchun o'qituvchida bo'g'in jadvali bo'lishi lozim. Bo'g'in jadvali asosida o'qish namunasi ko'rsatiladi, ya'ni harflab emas, ichida, birinchi harfni ko'z bilan ko'rib, uning nomini dilda saqlab, ikkinchi harfni ko'rish va ikkalasini bog'lab, unini mo'ljallab ulab aytish tushuntiriladi. Bo'g'in o'qish o'qituvchining namunasi asosida doimiy ravishda har bir darsda izchil olib boriladi.

Bunda "Alifbe" sahifalaridagi so'zlarni oldin bo'g'inga bo'lish, so'ng o'qishni mashq qilish yaxshi samara beradi. O'qituvchining namunali o'qishidan so'ng birgalikda ovoz chiqarib o'qish, yakka-yakka o'qish, shivirlab o'qishdan foydalaniladi. Ayniqsa, sekin o'qiydigan o'quvchilar bo'lgan sinflarda xo'r bilan o'qitish o'qishni tezlashtirishga yordam beradi. Sinf o'quvchilarining o'qish ko'nikmalaridan kelib chiqib, matndagi so'zlarni xattaxtada bo'g'inlarga bo'lib

yozish, o'rganilgan harflarni hisobga olgan holda qo'shimcha so'z birikmalari, gaplar tuzib yozish va o'qitish usulidan ham foydalaniladi.

Ma'lumki, "Alifbe" sahifalarida bo'g'in tuzilishi murakkablashib boradi. Shuning uchun o'qituvchi har bir bo'g'in tuzilishining murakkabligiga qarab ish usullarni belgilab olishi zarur. Masalan, uch tovushdan tuzilgan, to'rt tovushdan tuzilgan bo'g'inlarni o'qishga o'rgatish ham o'ziga xos qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bunda o-lov, Man-non tipidagi bo'g'inlarda o-lo:v, Ma:n-no:n tarzidagi qo'shimcha chiziqdan, bodring, do'st tipidagi bo'g'inlarda bo:d-ri:ng, to':r:t tarzidagi qo'shimcha chiziqlardan foydalaniladi. So'zlarni o'qishga o'rgatishda bilib o'qitishdan tashqari jadvallar ham yaxshi samara beradi:

Ki to**b** la**r**

Umuman olganda, har bir o'qish darsida, albatta, bo'g'in tuzilishi murakkab bo'lgan so'zlarni o'qish mashqi o'tkazilishi lozim. Bu usul o'quvchilarda o'qish malakasining takomillashuviga yordam beradi.

O'qishga o'rgatishda so'zlarni va gaplarni to'ldirib o'qish ko'nikmalarini hosil qilish o'quvchini gap tuzishga, tez fikrlashga yo'naltiradi. O'quvchi tushirib qoldirilgan harf va so'zni rasmga qarab topadi, uning gap mazmuniga mos yoki mos emasligiga e'tibor beradi, o'rtoqlariga nisbatan tez topib, o'qituvchining rahmatiga sazovor bo'lishga intiladi.

"Alifbe" darsligidagi matnlarda turli tinish belgilari ishlatilgan. O'quvchilar shularga mos ohang tanlashni, to'xtam (pauza) qilish o'rinlarini belgilab olishi zarur. Bunda ham o'qituvchining tushuntirishi (birinchi uchragan tinish belgini izohlashi) va ifodali o'qish namunasini ko'rsatishi katta ahamiyat kasb etadi. Ifodali o'qilgan matngina tushunarli tuziladi.

Har bir predmetda bo'lgani kabi o'qish darslarida ham ta'lim-tarbiya birligiga e'tibor beriladi. O'qish darslarida tarbiya o'qilgan matnning ongli o'zlashtirilishiga bog'liq. Birinchidan, o'quvchi matnda fikr nima haqida borayotganini anglasagina, o'zida shunday xislatlarni shakllantirishga harakat qiladi. Ikkinchidan, yaxshi inson bo'lish uchun o'qishning zarurligini anglaydi. Shuning uchun ongli o'qishni ta'minlashda matn bilan unga ishlangan mazmunli

rasmlar o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlashtirishga, matn yuzasidan savollar berishga diqqatni qaratish lozim. Bunda quyidagicha savol va topshiriqlardan foydalanish mumkin:

1. Rasmni kuzating, matnda nima haqida gap boradi?
2. Rasmda nima tasvirlangan? Ular orasida bog'lanish bormi?
3. Matn mazmunini rasimga qarab so'zlab bering.
4. Bolalar qayerga bordilar? Qizning ismi nima? Bolaning ismi-chi?
5. Ali, Lola nima qildi? Ular qanday lolalar terdilar?

Demak, o'qish o'qilganlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim, shundagina matndagi asosiy fikr, ilgari surilayotgan g'oya o'quvchilar tomonidan o'zlashtiriladi, so'z va matnlar yod olingan taqdirda ham o'quvchining bo'lib qoladi.

Savod o'rgatishning birinchi kunlaridanoq o'qish ongli bo'lishi, bolalarni ongli o'qishga o'rgatish juda muhim. So'roqlar yordamida o'qilganlarni bola qanday tushungani aniqlanadi, tekshiriladi. O'qishdan oldin o'tkazilgan tayyorlov suhbat ham, o'qilgan matn yuzasidan o'tkazilgan suhbat ham shu maqsadga ongli o'qishga xizmat qiladi. Sharoitga qarab, bolalarga nimanidir o'qishni talab qiladigan muammoli holatni yaratish ham zarur. Bunday holat "Alifbe"dan yoki harf terish matosidan o'qiladigan topishmoqdan foydalanib yoki muammoli savolni keltirib chiqaradigan taxminiy suhbat yordamida hosil qilinishi mumkin. Masalan, "qishda qushlar qayerga uchib ketadilar?" (harf terish matosida: "Issiq o'lkalarga uchib ketadilar"). Mana shu kabi tayyorlov mashg'ulotlari o'qishning yuqori darajada ongli bo'lishini ta'minlaydi.

Ongli o'qishni ifodali o'qishdan ajratib bo'lmaydi. Ammo analitik o'qishning birinchi bosqichida ifodali o'qish mumkin emas, chunki bolalar so'zda urg'uli bo'g'inni ajrata olmaydilar, tugallangan intonatsiyani, so'roq ohangini, hatto, orfoepik to'g'ri o'qishni ham bilmaydilar. Shuning uchun analitik o'qish bosqichida so'zni yaxlit, orfoepik qayta o'qish tavsiya qilinadi. Bunday qayta o'qish to'g'ri intonatsiyaga, ifodalilikka rioya qilib o'qishga o'rgatibgina qolmay, o'qishning ongli bo'lishiga ham yordam beradi.

Savod o'rgatishning birinchi darslaridayoq o'quvchilarga tabaqalashtirib (differentsial) yondashish (bunda o'quvchilarning o'qishga tayyorgarliklaridagi fikrlar hisobga olinadi) amalga oshiriladi.

O'qishning ongliligini va ta'sirchanligini ta'minlash uchun matn mazmunini o'quvchilarning ko'rgan-kechirganlari, taassurotlari bilan bog'lash lozim. Shunda o'quvchida o'qishga, o'rganishga qiziqish ortadi.

Ongli o'zlashtirishni amalga oshirishda lug'at ustida ishlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. So'zlarning ma'nosi ustida to'xtalish, birinchidan, fikrni oydinlashtirsa, ikkinchi tomondan matnni tushunishga ham yordam beradi.

She'r, tez aytish, topishmoq, qo'shiq, maqol, hikmatli so'zlardan o'qitish, yod oldirish ham o'quvchilarning o'qishga qiziqishini oshiradi, o'qish malakasini shakllantiradi, xotirasini mustahkamlaydi. Boshlang'ich sinflarda o'qish darslarining uchdan ikki qismi o'qishni mashq qilishga ajratilishi lozim.

Yangi material o'rganiladigan o'qish darsida asosiy ish turlari quyidagilardir:

1. O'rganiladigan yangi tovushli so'zni (shu tovush so'z boshida, o'rtasida, oxirida kelgan so'zni) bo'g'in-tovush tomonidan tahlil qilish bilan ajratish. Bunda yangi tovush ajratiladigan so'zni o'quvchilar rasm asosida o'zlari tuzgan gaplar ichidan oladilar. Tovushni ajratishda shu so'zning chizmasi-modeliga asoslanadilar. Tovushlarni eshitish, talaffuz qilish, ularning artikulyatsiyasi (nutq organlarining tovush chiqarishdagi ishi) ustida mashq qilinadi.

2. Kichik va bosh harflar bilan tanishtiriladi. Bo'g'inlar o'qitiladi.

3. So'zlarni avval xattaxtadan, keyin "Alifbe"dan o'qish. Harf bo'g'inlaridan harf terish kartonida so'z, so'z birikmasi, gap tuzish va ularni o'qish, so'z ma'nosi ustida ishlash.

4. Matnni o'qish va tahlil qilish, uni qayta o'qish, rasmning matnga bog'liqligini belgilash.

5. Nutq o'stirish: Lug'atni boyitish, so'z birikmasi, gap, bog'lanishli hikoya tuzish.

6. Umumlashtirish: yangi harfni jadvalga qo'yish, yangi o'rganilgan tovushning unli yoki undosh ekanligini aniqlash, yangi harfni ilgari o'rganilganlar bilan qiyoslash, tovush va harfning ahamiyatini takrorlash va hokazo.

7. O'rganilganlarni mustahkamlash darsida yangi tovush ajratiladi, yangi harf bilan tanishtirish mashqidan tashqari barcha ish turlaridan foydalaniladi, shuningdek, qo'shimcha so'zlar va matnlar bilan ishlanadi; matnni o'qish va tahlil qilishga, ko'rgazma vositalar bilan ishlashga (harfni terish kartoni, magnit doskasi, sirli mato, rasmlar va boshq.) nutq o'stirishga, o'yinlar va qiziqarli materiallarga, ilgari o'rganilgan tovushlar va harflarni takrorlab mustahkamlashga alohida ahamiyat beriladi, tarqatma materiallardan ham foydalaniladi.

8. Birinchi uchragan so'zlar bilan ishlash: ochiq bo'g'inda dastlab undosh, keyin esa unli o'qiladi, yopiq bo'g'inda esa unli bilan tugagan ochiq bo'g'inni o'qib, keyingi undosh o'qiladi va so'zni yaxlit o'qishga o'rgatiladi. Yangi so'z urg'usi qo'yilgan holda beriladi, bu uni o'qishga, bo'g'inlab o'qishdek sintetik o'qishga (so'zni butunligicha o'qishga) yordam beradi. Bunda yangi so'zni xattaxtada katta bosma harflar bilan yozish, o'quvchilarga o'qitish tavsiya qilinadi. So'z shivirlash bilan o'qiladi, kesma harf bo'g'in bilan yoziladi.

9. Syujetli (rasmning asosiy mazmunini aks ettiradigan) rasmga qarab o'qituvchi yordamida, uning yo'llovchi savollari asosida hikoya tuzish, undan gapni ajratish va analiz qilish.

Yangi bo'g'in, so'z tuzishda harf terish matosi, magnit doskasi, sirli mato kabilarning va yangi so'zni xattaxtada va daftarda "yasash"ning ahamiyati juda katta. O'qish uchun xilma-xil bosma materiallardan qanchalik ko'p bo'lsa, ulardan turli xil mashqlar tuzishda foydalanilsa, o'qish shunchalik ongli, qiziqarli bo'ladi, malaka puxta shakllantiriladi.

Bola endigina o'qiy boshlagan bosqichda ularni qatorni yo'qotmaslikka, shuningdek, so'zdagi keyingi harfni, keyingi so'zni yo'qotmaslikka o'rgatish juda muhimdir. Bu vazifani savod o'rgatishning boshlang'ich bosqichida xatcho'p (o'qiyotgan betni belgilab qo'yish uchun kitob ichiga solib qo'yiladigan qog'oz yoki lentacha) va tayoqcha bajaradi. O'qilayotgan qatorni kuzatib borish

ko'nikmasiga sinf o'quvchilaridan o'rtog'ining xatosini to'g'rilashni talab qilish yo'li bilan ham erishiladi. O'quvchilar bu talabni qiziqib bajaradilar, shu yo'l bilan ularning darsga, o'qishga e'tibori jalb etiladi.

Sintez mashqlari o'quvchilarning o'qish ko'nikmalarini shakllantirishga katta yordam beradi. Sintez mashqlari quyidagicha tashkil etiladi:

1. Tovush tomonidan analiz qilingan so'zni yoki bo'g'inni talaffuz qilish va uni kesma harfdan tuzish (yozish); shu so'z yoki bo'g'inni o'qish.

2. O'rganilgan undosh yoki unli bilan (na, ni, no; la, lo, li; ay, uy, oy, ...) bo'g'in jadvalini tuzish; bo'g'in jadvalini kitobdan yoki matndan o'qish; kesma harflardan bo'g'in jadvalini tuzish.

3. Bola-lola-tola, boy-soy-loy, baxt-taxt, ona-ota, mosh-bosh kabi bir undosh harf bilan farqlanadigan yoki ona-ana, ukki-ikki, osh-ish kabi bir unli harf bilan farqlanadigan so'zlarni o'qish (bunday so'zlarni o'quvchilarning o'zlari topib o'qishlari mumkin).

4. So'zning boshiga yoki oxiriga bir harf qo'shib, yangi so'z hosil qilib o'qish: ola-lola, osh-bosh, oy-toy, boy, soy, loy; o'roq-so'roq; ol-xol, sol; sava-savat; son-oson; ayiq-qayiq; olti-oltin.

5. So'z o'rtasiga harf qo'shib, yangi so'z hosil qilib o'qish: ko'mak-ko'lmak, zirak-ziyrak, tana-tashna, sila-siyla kabi.

6. Bo'g'inlarni almashtirib yangi so'z hosil qilish va o'qish: Gulnor-Norgul, asil-sila kabi.

7. Tovushlarning o'rnini almashtirib yangi so'zni hosil qilish va o'qish: somon-osmon, tilak-kalit, qo'y- yo'q.

8. Tovushni yoki bo'g'inni tushirib qoldirib, yangi so'z hosil qilish va o'qish: anor-nor, gulnor-gul, yelkan-yelka, bog'la-bola.

9. Bo'g'in qo'shib yangi so'z hosil qilish va o'qish: bog'-bog'bon, gul-gulzor, paxta-paxtakor.

Sintetik ishlarning bu usullari tovush ustida ishlashni harf ustida ishlash bilan birga qo'shib olib borishni talab qiladi. Bu ish usullari qiziqarli bo'lib, darsda yarim o'yin holatini vujudga keltirishga imkon yaratadi.

Diktsiya ustida ishlash ham o'quvchilarning o'qish ko'nikmalarini egallashlarida muhimdir. Diktsiya ustida ishlash o'quvchilar nutqini tushunarli, sof, tiniq, jarangdor bo'lishiga erishishdir. U savod o'rgatish uchun ham, ifodali o'qish, orfoepik va orfografik malakani, xushovozlik ko'nikmasini o'stirish uchun ham juda muhimdir. Yaxshi diktsiya tovush hosil qiluvchi apparatning egiluvchanligiga bog'liq, shuning uchun diktsiyani o'stirish mashqlari tovush hosil qiluvchi apparatning egiluvchanligini oshirishga qaratiladi.

Diktsiya ustida ishlashda quyidagicha mashq turlaridan foydalanish mumkin:

1. Baland talaffuzni mashq qilish: Masalan, sara-shira-sara-shira kabi so'zlarni ovozni to qichqiriqqacha balandlatib, so'ngra esa ovozni to shivirlashgacha pasaytirib talaffuz qilish.

2. Talaffuz tempini mashq qilish. Shu sara-shira kabi so'zlarni sekin talaffuz qilib, tempni asta tezlashga borish.

3. Ayrim undosh tovushlarni, ayniqsa, o'quvchilar qiyinchilik bilan yoki noto'g'ri talaffuz qiladigan so'zlarni qayta talaffuz qilish mashqi.

4. Murakkab tovush birikmalarini talaffuz qilishni mashq qilish. Buning uchun tez aytishlardan foydalaniladi. Misol: qishda kishmish pishmash, pishsa kishmish qishmash.

Bolalarni so'zlayotganda to'g'ri nafas olishga, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish zarur. Ba'zi tortinchoq bolalar tovushni talaffuz qilishga uyaladilar. Bunday vaqtda tovushni, so'zni xo'r bilan talaffuz qildirish, xo'r bilan o'qitish, tez aytishlarni xo'r bilan aytirish foydalidir.

Demak, o'quvchilarni o'qishga o'rgatish, ularning o'qish sur'atini oshirish, ifodali va ongli o'qish elementlarini shakllantirish, tarbiyalash o'qish darslarining muhim vazifalari hisoblanadi.

BIRINCHI BOB BO`YICHA XULOSA

1. O`quvchilarga dastlab tovush va harf tushunchlarini farqini amaliy misollar orqali o`rgatish lozim;
2. O`zbek yozuvi tovushli, aniqrog`i fonemali yozuvdir. Har bir fonemaning harfli belgisi - grafikasi bor. O`qishda grafik belgilar-harflarni tovushga aylantirish bosqichi, yozuvda esa tovushni harfga aylantirish bosqichi bo`lib, bu o`quv rejasida haftasiga 4 soat o`qish, 4 soat yozuv darslari tarzida belgilangan.
3. Hozirgi kunda O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligi tasdiqlagan umumiy o`rta ta`lim maktablarining 1-sinfi uchun 2017-yil nashr qilingan "Alifbe" darsligidan foydalaniladi. Mualliflar R..Safarova, M.Inoyatova, M.Shokirova va L.Shermamotovalar bo`lib, qayta ishlangan 14-nashridir.
4. O`quvchilarni o`qishga o`rgatish, ularning o`qish sur'atini oshirish, ifodali va ongli o`qish elementlarini shakllantirish, tarbiyalash o`qish darslarining muhim vazifalari hisoblanadi.
5. Diksiya ustida ishlash texnologiyasidan foydalanish yaxshi samara beradi: 1. Baland talaffuzni mashq qilish. 2. Talaffuz tempini mashq qilish. 3. Ayrim undosh tovushlarni, ayniqsa, o`quvchilar qiyinchilik bilan yoki noto`g`ri talaffuz qiladigan so`zlarni qayta talaffuz qilish. 4. Murakkab tovush birikmalarini talaffuz qilish.
6. Analiz mashqlari bilan o`qishga o`rgatishda kesma bo`g`inlar bilan ishlash texnologiyasi o`qituvchiga ancha engillik beradi va ko`rgazmalilikni ta`minlaydi.
7. Sintez mashqlarini tashkil etish texnologiyasi o`quvchilarning o`qish ko`nikmalarini shakllantirishga katta yordam beradi.

IKKINCHI BOB

Savod o`rgatish davrida o`quvchilarni o`qishga o`rgatishda qo`llanadigan texnologiyalar

2.1. Savod o`rgatish tayyorlov davrida to`g`ri o`qish va yozishga o`rgatish ishlarini amalga oshirish usullari

Savod o`rgatish davri sentabrdan dekabrgacha 4 oy davom etadi. Savod o`rgatish jarayoni ikki davrni: alifbogacha tayyorlov davri va alifbo (asosiy) davrga ajratiladi.

Tayyorlov davri ikki bosqichga bo`linadi:

Nutq, gap, so`z, bo`g`in amaliy o`rganiladigan bosqich;

Tovush, unli va undosh tovushlarni amaliy farqlashga o`rgatiladigan bosqich⁵.

Savod o`rgatish tayyorlov darslari o`quvchilar matnni gaplardan tuzilishini, gapni so`zlardan tuzilishini, so`zning bo`g`inlarga bo`linishini, bo`g`in va so`zning tovushlarning muayyan tartibidan hosil bo`lishini, tovushlarni talaffuziga ko`ra farqlash bo`yicha mashqlar bajaradilar.

Alifbegacha tayyorgarlik davridagi mashqlar alifbe davrida darsni yanada samarali olib borish uchun zamin yaratadi. Tayyorgarlik davridanoq o`quvchilar o`qish ko`nikmalarini egallashga tayyorlab boriladi. Bu davrda o`quvchilar ko`rganlari, eshitganlari haqida so`zlab beradilar. Masalan, "Mutsaqil O`zbekitson" mavzusida o`qituvchi bergan savollar asosda gaplar tuzib, o`z fikrlarini bayon etadilar. Bu o`quvchilarning nutqiy ko`nikmalarini o`rganish va undagi xato-kamchiliklarni barataraf etish bo`yicha ishlarni tashkillash imkonini beradi. O`quvchilar nutqida tovushlarni buzib talaffuz qilish holatlari, sheva ta`siri, ovozi boshqara olmaslik, nafasni to`g`ri olish va to`g`ri sarflay olmaslik kabi nuqsonlar, bu nuqsonlar tufayli bolada yuzaga kelgan tortinchoqlik kabilar ularning o`qish ko`nikmalarini egallashlariga to`sqinlik qiladi.

⁵ K.Qosimova va n. Ona tili o`qitish metodikasi. –T., Noshir. 2009. 32-bet.

“Mutsaqillik bayrami“, “Bilimlar kuni“iga bag`ishlangan darsdayoq sintetik mashqlar amalga oshiriladi. O`qituvchi rasm asosida o`quvchilarga savollar beradi va savollarga olgan javoblari bir butun hikoyani hosil qilishini o`quvchilarga tushuntiradi. Masalan:

- Vatanimizda qanday kunni nishonlayapmiz?
- Mustaqillik bayramida bolalar nima qildilar?
- Vatan haqida she`rlardan aytib bering.

Vatan mavzusida o`quvchilarga she'rlar aytiriladi. Masalan:

Shodligim ko`kka sig`mas,
Bitmas baxtim bor manim.
Meni baxtiyor qilgan,
Shu yengilmas Vatanim. (Zafar Diyor)

Vatanim - quyosh,
Boshimni silar.
U menga ko`z-qosh,
Iqbolim tilar.
Quvnab erkin-shod,
Bo`laman katta.
Baxt bor umrbod,
Tinch mamlakatda. (Obid Rasul)

Maqollar o`rgatiladi. Masalan:

Bulbul chamanni sevar,	Vatani borning - baxti bor.
Odam Vatanni sevar.	Mehnati borning – taxti

Darsni qiziqarli tashkil etish uchun topishmoqlar toptiriladi:

Sirti tayoq,
Ichi bo`yoq.

O`quvchilar eshitgan va ko`rgan ertaklar so`zlatiladi.

Ikkinchi darsda maktab, maktab hovlisi tasvirlangan rasmlar asosida o`quvchilarga gaplar tuzdiriladi. Yoki kun tartibi tasvirlangan rasm asosida suhbat uyushtiriladi. O`quvchilar tuzgan gaplar to`plami nutq ekani va nutq gaplardan tuzilishi haqida elementar ma`lumot beriladi. Bunda gapning nusxalaridan foydalaniladi. Masalan:

-Siz soat nechada uyqudan uyg`onasiz? - _____ ?

-Men soat 7-00 da uyqudan uyg`onaman. - _____.

-Soat 7-00 da nima ish qilasiz? - _____ ?

- Soat 7-00 da o`rnimni yig`aman. - _____.

-Soat 7-05 da nima ish qilasiz? - _____ ?

-Soat 7-05 da jismoniy tarbiya bilan shug`ullanaman. - _____.

-Soat 7-15 da nima ish qilasiz? - _____ ?

-Soat 7-15 da nonushta qilaman. _____ .

-Soat 7-30 da nima ish qilasiz? - _____ ?

-Soat 7-30 da maktabga otlanaman. - _____ .

-Soat 5 daqiqasi 8 da sinfda o`tiraman. - _____.

O`quvchilarga “Nutq nimalardan tuzilar ekan?“, “Nutqni nimalarga ajratsak bo`ladi?“ savollari beriladi.

Shundan so`ng gap haqida amaliy ma`lumot beriladi: Gapning boshlanishini burchakli chiziq bilan belgilaymiz. Burchak gapning boshlanishini bildiradi. Gapning tugaganligini tinish belgilar bilan ko`rsatamiz. Bu - nuqta (.) Bu – so`roq (?) belgisi.

Tayyorlov davrida o`quvchilarning bog`lanishli nutqini o`stirishga oid ta`limiy ishlar amalga oshiriladi, ya'ni o`quvchilar rasmlar asosida hikoya tuzadilar, rasm mazmuniga mos sarlavha topadilar. O`quvchilarga topishmoq, maqol, hikmatli so`zlar yodlatiladi. Ular asosida gap haqida ma`lumot mustahkamlanadi.

Tayyorlov davrida o`quvchilarga so`z haqida amaliy tushuncha beriladi. O`quvchilarga “Darsda nimalardan foydalanamiz?“ savoli beriladi. Ularga o`quv qurollari rasmi ko`rsatiladi. Quyidagi savollar beriladi:

-Bu – nima?

-Bu – kitob.

-Siz nima aytdingiz?

O`quvchi bu savolga javob bera olmaydi. Shunda o`qituvchi “Siz so`z aytdingiz.

Kitob – bu so`z“ deb yangi ma`lumotni tushuntiradi.

-Bu – nima?

-Bu – daftar.

-Siz nima aytdingiz?

-Men so`z aytdim.

-Kitob, daftar nima ekan?

-So`z ekan.

Doskaga so`zning nusxasi chizib ko`rsatiladi: _____

-Kitob, daftar – nima?

-Kitob, daftar –o`quv qurollari.

-Siz nima aytdingiz?

-Biz gap aytdik.

-hozir men siz aytgan gapning nushasini doskada chizaman: _____, _____ -
_____.

-Gapda nechta chiziq bor? Ular nimani bildiriyapti?

-Gapda to`rtta chiziq bor. Ular so`zlar.

-Gap nimadan tuzilar ekan?

- Gap so`zlardan tuzilar ekan.

-Gapni nimalarga ajratish mumkin ekan?

-Gapni so`zlarga ajratish mumkin ekan.

Doskaga men gap yozdim. Aniqlang, gapda nechta so`z bor?

- Kuzating, nechta so`zli gap aytishingiz kerak?

-O`quv quroli haqida bitta gap ayting. Doskaga o`shanisini chizing.

Shu tarzda so`z haqida ma'lumot beriladi.

Tayyorlov davrida o`quvchilarga bo`g`in haqida amaliy tushuncha beriladi. Bu tushuncha amaliy bo`lishidan qat'iy nazar bola uni egallamasa, o`qishni

o`zlashtirishi juda qiyin va uzoq vaqtni oladi. Bola bo`g`in, bo`g`inga bo`lishni bilmasa, so`zda bo`g`inlar chegarasini aniqlay olmasa, so`zni bo`g`inlab o`qiy olmaydi. Shuning uchun bo`g`in haqida tushuncha hosil qilish usularidan o`qituvchi to`g`ri foydalanishi kerak. Tayyorlov davrida va alifbo davrida ham darslik sahifasida uchragan, tuzilishi bola uchun biroz bo`lsa-da, qiyinlik qiladigan so`zlarni albatta bo`g`inga bo`ldirish va bo`g`inlab o`qishni mashq qildirish kerak. Bu bo`g`in chegarasini bilmaydigan bolalar uchun namuna va bilish vositasi sanaladi.

Masalan, tayyorlaov darsida rasmlar berilgan. Bolalaga shu rasm nomi aytiriladi. Shu paytda uning nomi bo`g`inga bo`ldirilishi kerak.

Bo`g`inga bo`ldirishda so`zning bo`g`inga bo`lish nusxasidan foydalanish lozim. Bu ko`rgazmalilik demakdir. Masalan, olma: _____, olxo`ri: _____

Tayyorlov davrida o`quvchilarga tovush, unli va undosh tovushlar haqida amaliy tushuncha beriladi. Tovushlar uchun qabul qilingan katakchalardan foydalaniladi: Olma



Tayyorlov davrida tovush, unli va undosh tovushlarni farqlash ko`nikmasi ustida ishlash so`zni bo`g`inga bo`lishdan boshlanadi. Bu mashq so`z tarkibida va so`zdan tashqari tovushlarni to`g`ri talaffuz qilishga o`rgatadi. Bu ham o`z navbatida o`qishni egallashga o`z ta'sirini ko`rsatadi. Tovush utsida ishlash mashqlarida ularning to`g`ri artikultsiyasi utsida ishlash muhim sanaladi.

Tayyorlov davrining tovush va harf o`rganiladigan bosqichida faqat Oo tovush va harfi bilan tanishtiriladi. Bunda quyidagicha analitik mashq tashkil qilinadi:

1. O o tovushi bilan tanishtirish.

Oy rasmi ko`rsatiladi va nomi so`raladi.

Oy so`zida o tovushi cho`zib talaffuz qilinadi.

O-o-o-o-o---y

Qaysi tovush cho`zib aytilayotgani so`raladi. Doskaga bir katak chiziladi. Ichi qizil bilan bo`yaladi.

O`qituvchi o tovushini yana cho`zib talaffuz qiladi va og`iz bo`shlig`ini o`quvchilarga kuzatishlarini aytadi.

So`ng o`quvchilarga o tovushi cho`zib talaffuz qildiriladi. O tovushining xususiyatlarini aytadi: Og`izda to`siqqa uchramaydi. Cho`zib talaffuz qilinadi. Shuning uchun o tovushi unli tovush sanaladi.

Keyin ikkinchi tovush ustida ishlanadi, uning talaffuzi o tovushi bilan taqqoslanadi. Doskaga so`zning sxemasi chiziladi.

o tovushining so`zdagi o`rni aniqlanadi.

O tovushining talaffuzi ustida yana mashq o`tkaziladi.

3. O tovushli so`z topish.

4. O o harflari bilan tanishtirish. Kesma harf ichidan O o harflari olib ko`rsatiladi.

Tayyorlov davrida o`rganiladigan har bir mavzu va o`tkaziladigan har bir mashq turi o`quvchilarni o`qishga tayyorlab boradi.

2.2. Savod o`rgatish davrida o`quvchilarni o`qishga o`rgatishda kesma harflar va jadvallardan foydalanish

Ma'lumki, savod o`rgatish jarayonidagi asosiy davrning vazifasi o`quvchilarni tovush va harf bilan tanishtirish, ularning to`g`ri talaffuzini o`rgatish orqali bolalarda bo`g`inlab to`g`ri, ongli, ifodali o`qish ko`nikmalarini shakllantirishdir. Shuningdek, o`quvchilar lug`atini boyitish, bog`lanishli nutqini o`stirish, bilimni boyitish, tafakkurini, eshitish, qabul qilish sezgisini o`stirish ham shu davrning vazifalariga kiradi.

Asosiy davrda tovush-harf bilan tanishtirish Nn tovush va harfi bilan boshlanadi, o`rganilgan tovush-harflarni o`zaro bog`lab so`z tuzish va o`qish alifbo davri sanaladi. Bo`g`inlardan so`z tuzish va o`qish, so`zlardan gap tuzish va o`qish

mashqlari bajariladi. Bolalar tovushlarni yozuvda harf bilan ifodalash, harflardan bo`g`in va so`z tuzishga, ularni o`qishga o`rganadilar. Gap va bog`lanishli matnni ongli, to`g`ri, bo`g`inlab o`qish ko`nikmasini egallaydilar.

Savod o`rgatishning asosiy davri darslarida o`quvchilarning boshqalar nutqini diqqat bilan tinglash va nima haqida gapirayotganini tushunib olish ko`nikmalari o`stiriladi. Bolalar sinf o`quvchilari oldida gapirishga, o`qituvchining savollariga javob berishga, topshiriqlarni mustaqil bajarishga, bilmaganlari va o`zlari qiziqqan narsalar to`g`risida so`rab bilib olishga, o`qiganlarini qayta hikoyalashga, o`zlari kuzatgan, ko`rgan diafilm va kinofilmlar hamda eshitgan va o`qigan hikoya, ertaklarini kuzatgan rasmlari haqida hikoya qilib berishga o`rganadilar.

“Alifbe”, tarqatma material va metodik qo`llanmalarda berilgan didaktik o`yinlardan foydalanib, bir turidan boshqa turiga o`tiladi va toliqishining oldi olinadi.

O`quvchilarni o`qishga o`rgatish bo`g`in asosida olib boriladi. Bo`g`inlab o`qishga o`rgatish uchun so`zni bo`g`inga bo`lish, bo`g`in chegarasini aniqlash muhim sanaladi. Savod o`rgatish davrida o`quvchilar so`zlarni bo`g`inlarga to`g`ri bo`la bilsalar, o`qish ko`nikmasini ham yaxshi egallaydilar. Bu analitik mashqlar asosida amalga oshiriladi. O`quvchilar bo`g`inga bo`lish usullaridan foydalanib, oldin so`zlarni bo`g`inga bo`ladilar, so`ng o`qishni mashq qiladilar. Masalan,

Ona borki,

Bola bor.

Ona borki,

Alla bor.

Ona borki,

Olam bor⁶

she`rini o`qishdan oldin o`qituvchi so`zlar yozilgan kartochkalarni ko`rsatadi. O`quvchilar uni bo`g`inga bo`ladilar:

o-na bor-ki

⁶ R.Safarova va b. Alifbe. –T., Ma`naviyat. 2017.

bo-la bor
al-la o-lam

O`qishning dastlabki bosqichida orfografik o`qishdan foydalaniladi, asta-sekin orfoepik o`qish ko`nikmalari shakllantiriladi. Talaffuzi yozilishiga mos kelmaydigan tovushlar ishtirok etgan so`zlar oldin orfografik, so`ngra orfoepik o`qib beriladi va ularning o`qilishi bilan yozilishi taqqoslanadi. O`quvchilar muayyan darajada tushunchaga ega bo`lganlaridan so`ng orfoepik o`qish mashq qilinadi.

Savod o`rgatishning asosiy davrida analitik mashqlarni ham kesma harf va bo`g`inlar asosida tashkil etish mumkin. Masalan, o`qituvchi utsunchadagi so`zni o`qib beradi, o`quvchilar uni bo`g`inga bo`lib aytadi va kesma bo`g`inlar ichidan har bir bo`g`inni olib ko`rsatadi va o`qiydi. Masalan:

ko`mir	O`ktam	To`lan	O`tkir
ko`lmak	koklam	ko`rkam	ko`mak

O`qishga o`rgatish uchun, avvalo, o`quvchi tovush va harf bilan yaxshi tanishtirilishi lozim. Tovush va harf bilan tanishtirishda bo`g`indan tovushni ajratish tamoyiliga rioya qilinadi. Harf bilan tanishtirish bir necha xil yo`nalishda amalga oshirilishi mumkin:

Mazmunli rasm yuzasidan savol-javob usuli bilan bog`lanishli hikoya tuzdiriladi. Undan kerakli gap, so`ng kerakli so`z ajratib olinadi, so`ngra so`z ustida yuqoridagi kabi tahlil ishlari uyushtiriladi. Masalan, Nn tovush va harfi o`rganiladigan darsda “Non isi“ hikoyatini so`zlab berish mumkin. O`quvchilar hikoyatdan “Ko`nglim non isini tusayotgan edi“ gapini ajratadilar, undan non so`zi ajratib olinib, non so`zi tahlil qilinadi, n tovushining xususiyatlari aniqlanadi.

Bir kuni Xusayn Boyqoro mulozimlariga:

-Mening ko`nglim bir narsa istayapti. U juda xushbo`y narsa. Uning nima ekanligini bilmayapman. Shuni topib keling, deb farmon beribdi.

Mulozimlari unga qalampir munchoq keltrishibdi.

Shoh: -Menning ko`nglim istagan narsa bu emas.

Mulozimlar bir dasta gul keltirishibdi. Shoh uni ham rad etibdi.

Shundan so`ng mulozimlar hazrat Alisher Navoiy oldiga borishibdi. U tandirdan yangi uzilgan nonni savatga solib olib borishlarini maslahat beribdi.

Mulozimlar savatda tandirdan yangi uzilgan nonni saroyga olib borishibdi. Saroy ichi non isiga to`libdi. Shunda shoh:

-Mening ko`nglim tandirdan yangi uzilgan nonni istagan ekan, debdi.

So`ng o`quvchilarga rivoyatni so`zlatadi.

Li tovush - harfi o`rganiladigan darsda ilon haqida Abusaid Ko`chimovning asarida berilgan voqeani so`zlab berish mumkin:

Bir ovchi tog`li yerda ov qilib yurib jarlikka tushib ketadi. U jarlikda bir katta ilon yotgan bo`ladi. Yigit bir necha kun shu jarlikda ilondan qo`rqib yotadi. Ilon jordan chiqib bir joylarga borib kelaveradi. Bora-bora ilon yigitga o`rganib qoladi. Bir kuni yigitni ustiga mindirib jordan chiqaradi.

Yigit o`rtoqlariga bu haqida gapirib beradi. O`rtoqlarining bir sirkchi o`rtog`i bu voqeadan xabar topib, shu ilonni topib ko`rsatishlarini so`raydi. Ilonni tutib olib sirka olib ketadi va u yerda ilon bilan tomoshalar ko`rsatadi.

Kunlarning birida jarda ilon bilan birga bo`lgan bola sirkka boradi. U yerda ilon yigitni tanib qoladi va uning yuzini tishlab oladi.

So`ng u ham o`quvchilarga savol-javob yo`li bilan gapirtiriladi. Shunga o`xshash qiziqarli hikoyalar harf bilan bog`liq holda o`quvchilarga gapirib berilsa, ularni bilimi ham oshadi, nutqi ham o`sadi.

2. So`z asos qilinib, analitik mashqlar yordamida o`rganiladigan tovush ajratib olinadi. Masalan: oy. O`qituvchi oy rasmini ko`rsatadi, o`quvchilar uning nomini - so`zni aytadi. O`qituvchi o tovushini cho`zib (o-o-o-y) aytadi va qaysi tovushni cho`zib aytayotganini o`qituvchilardan so`raydi. O`quvchilar o tovushini aytgach, uning xususiyalari haqida savol-javob o`tkaziladi. O tovushli so`zlar o`ylab toptiriladi. Shundan so`ng o harfi kesma harfdan yoki rasmlif alifbodan ko`rsatiladi. Bunda o harfining shaklini esda olib qolishlariga alohida e`tibor qaratiladi.

3. O`rganilgan harflar ichiga bugun o`rganiladigan harf aralashtirib qo`yiladi, bolalar uning ichidan notanish harfni ajratadilar, so`ng o`qituvchi bu harf ifodalaydigan tovushni aytadi. O`quvchilar tovushning xususiyatlarini aytadilar. Shu harfni kesma harflar ichidan topib, kitob sahifasidan, rasmi alifbodan ko`rsatadilar. Shu tariqa tovush-harf bilan tanishtirilgach, o`qishga o`rgatish utsida ishlanadi.

O`quvchining namunali o`qishidan so`ng birgalikda ovoz chiqarib o`qish, yakka-yakka o`qish, shivirlab o`qishdan foydalaniladi. Ayniqsa, sekin o`qiydigan o`quvchilar bo`lgan sinflarda xo`r bilan o`qitish o`qishni tezlashtirishga yordam beradi. Sinf o`quvchilarining o`qish ko`nikmalaridan kelib chiqib, matndagi so`zlarni xattaxtada bo`g`inlarga bo`lib yozish, o`rganilgan harflarni hisobga olgan holda qo`shimcha so`z birikmalari, gaplar tuzib yozish va o`qitish usulidan ham foydalaniladi.

Ma'lumki, "Alifbe" sahifalarida bo`g`in tuzilishi murakkablashib boradi. Shuning uchun o`qituvchi har bir bo`g`in tuzilishining murakkabligiga qarab ish usullarni belgilab olishi zarur. Masalan, uch tovushdan tuzilgan, to`rt tovushdan tuzilgan bo`g`inlarni o`qishga o`rgatish ham o`ziga xos qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bunda o-lov, Man-non tipidagi bo`g`inlarda o-lo:v, Ma:n-no:n tarzidagi qo`shimcha chiziqdan, bodring, do`st tipidagi bo`g`inlarda bo:d-ri:ng, to`:r:t tarzidagi qo`shimcha chiziqlardan foydalaniladi. Bular analitik mashqlar bo`lib, ular sintetik mashqlar bilan uyg`unlashib ketadi.

So`zlarni o`qishga o`rgatishda bo`g`inlab o`qitishda jadvallar ham yaxshi samara beradi:

ki	tob	lar
----	-----	-----

"Alifbe" darsligidagi matnlarda turli tinish belgilari ishlatilgan. O`quvchilar shularga mos ohang tanlashni, to`xtam (pauza) qilish o`rinlarini belgilab olishi zarur. Bunda ham o`qituvchining tushuntirishi (birinchi uchragan tinish belgini

izohlashi) va ifodali o`qish namunasini ko`rsatishi katta ahamiyat kasb etadi. Ifodali o`qilgan matngina tushunarli tuziladi.

Har bir predmetda bo`lgani kabi savod o`rgatish darslarida ham ta'lim-tarbiya birligiga e'tibor beriladi. Savod o`rgatish darslarida tarbiya o`qilgan matnning ongli o`zlashtirilishiga bog`liq. Birinchidan, o`quvchi matnda fikr nima haqida borayotganini anglasagina, o`zida shunday xislatlarni shakllantirishga harakat qiladi. Ikkinchidan, yaxshi inson bo`lish uchun o`qishning zarurligini anglaydi. Shuning uchun ongli o`qishni ta'minlashda matn bilan unga ishlangan mazmunli rasmlar o`rtasidagi bog`lanishlarni aniqlashtirishga, matn yuzasidan savollar berishga diqqatni qaratish lozim. Bunda quyidagicha savol va topshiriqlardan foydalanish mumkin:

1. Rasmni kuzating, matnda nima haqida gap boradi?
2. Rasmda nima tasvirlangan? Ular orasida bog`lanish bormi?
3. Matn mazmunini rasimga qarab so`zlab bering.
4. Bolalar qayerga bordilar? Qizning ismi nima? Bolaning ismi-chi?
5. Ali, Lola nima qildi? Ular qanday lolalar terdilar?

Mazkur savol - topshiriqlar asosida butunlikni tashkil etuvchi matn va syujetli rasm analitik yo`l bilan, ya'ni analitik mashq asosida tahlil qilinadi va o`zlashtiriladi. Demak, o`qish o`qilganlarni o`zlashtirishga yo`naltirilgan bo`lishi lozim, shundagina matndagi asosiy fikr, ilgari surilayotgan g`oya o`quvchilar tomonidan o`zlashtiriladi, so`z va matnlar yod olingan taqdirda ham o`quvchining bo`lib qoladi.

Ongli o`zlashtirishni amalga oshirishda lug`at utsida ishlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. So`zlarning ma'nosi ustida to`xtalish, birinchidan, fikrni oydinlashtirsa, ikkinchi tomondan matnni tushunishga ham yordam beradi.

She'r, tez aytish, topishmoq, qo`shiq, maqol, hikmatli so`zlardan o`qitish, yod oldirish ham o`quvchilarning o`qishga qiziqishini oshiradi, o`qish malakasini shakllantiradi, xotirasini mustahkamlaydi. Masalan, topishmoq aytilgach, o`quvchilar uning javobini izlayotganda matndagi so`zlarga o`quvchilar e'tibori

tortiladi, ulardan foydalanib javobni topishlari o`rgatiladi. Bu mashq ham analitik mashqqa kiradi.

1. Yangi materialni o`qishga o`rgatish texnologiyasi. Yangi materialni o`qishga o`rgatishda tovushni so`zning chizmasi-modeliga asoslangan holda ajratish. Bunda yangi tovush ajratiladigan so`zni o`quvchilar rasm asosida o`zlari tuzgan gaplar ichidan ajratadilar. Tovushni ajratishda shu so`zning chizmasi-modeliga asoslanadilar.

2. Kichik va bosh harflar bilan tanishtirish texnologiyasi. Kichik va bosh harflar bilan tanishtirishda taqqoslash usuli yaxshi samara beradi. Bunda bosh harf bilan va kichik harf bilan yozilgan so`zlarni bo`g`inlarga bo`ladilar, o`qiydilar va ikki ustunga ajratadilar. Masalan:

Chinoz	chinni
Andijon	andava
Samarqand	sa`va

3. Xo`r bo`lib o`qitish texnologiyasi. O`qishga o`rgatiladigan so`zlar doskaga bo`g`inlarga bo`lib yoziladi, o`qituvchi o`qib ko`rsatadi, so`ng xo`r bilan, keyin darslikdan o`qitiladi.

4. Matnni o`qish va tahlil qilish texnologiyasi. Matnni o`qish va tahlil qilishda oldin gap o`qiladi, nechta gap o`qilgani aniqlanadi, gapning nechta so`zdan tuzilgani, oxiriga qaysi tinish belgisi qo`yilgani izohlanadi, gapning mazmuniga mos ohang bilan o`qish mashq qilinadi.

5. Birinchi uchragan so`zlar bilan ishlash texnologiyasi: Bu so`zni bo`g`inlab o`qishdan sintetik o`qishga - butunligicha o`qishga o`tiladi.

6. O`qishga o`rgatishga yordam beruvchi rasm ustida ishlash texnologiyasi. Syujetli rasimga qarab o`qituvchi yordamida, uning yo`llovchi savollari asosida gap tuzish.

Demak, o`quvchilarni o`qishga o`rgatish, ularning o`qish sur'atini oshirish, ifodali va ongli o`qish elementlarini shakllantirish, tarbiyalash savod o`rgatishning asosiy davri darslarining muhim vazifalari hisoblanadi.

Savod o`rgatish davrida o`quvchilarni o`qishga o`rgatishda tarqatma materiallardan foydalanish texnologiyasi:

1- kartochka

o-n a-n n-o n-a

2- kartochka

on an no na

3- kartochka

o-na a-n a no -n

4- kartochka

o-n a-n n-o
i-n n-i n-a

5- kartochka

o-n a-n n-o n-a
i-n n-i
u-n n-o`

6- kartochka

o-n a-n n-o n-a
o-na a-n a no -n
un in no-m

Shu tarzda o`qish materiali o`rganilgan tovush-harf bilan boyitilib boriladi. Bular bo`g`inlab o`qishga o`rgatadi.

7- kartochka

A-na in.

A-na un.

A-na non

8- kartochka

Ma-na i-lon.

Ma-na uk-ki.

9- kartochka

To-lib tut ek-di.

10- kartochka

Do`m-bi-ra, do-i-ra, ru-bob.

11- kartochka

qu-qu xo`-ro-zim,

To-ji til-la xo`-ro-zim.

De-ra-za-dan qa-ray hol,

Ma-na, don-ni o-la hol.

O`qituvchi o`quv materiali sifatida “Alifbe“ darsligidagi matnlarni soddalashtirib, o`qishga o`rgatishda analitik mashqlardan foydalanadi.

Savod o`rgatishning asosiy davrida matnlarni qismlarga bo`lish ham analitik mashqlarga kiradi. Masalan:

Gg tovush va harfi o`rganiladigan darsda “Gilos” matni berilgan. Uni berilgan rasm asosida ikki qismga bo`ldirish mumkin:

Gulnora bilan ukasi O`tkir gilos terdilar. O`tkir gilosning ustiga chiqdi. Ko`p gilos yedi.

-Tusha qol,- dedi Gulnora. U opasining gapiga quloq solmadi. Bir narsa qars etdi. O`tkir pastda yiqildi. Qo`li lat yedi. U qil-mi-shi-dan pu-shay-mon bo`ldi.

Xulosa qilib aytganda, savod o`rgatishning asosiy davrida o`quvchilarni tovush va harf bilan tanishtirish, o`qish ko`nikmalarini shakllantirish analitik mashqlar yordamida amalga oshirilsa, savod chiqarish, o`qishga o`rgatish samarali, ongli bo`ladi.

Quyida “T” tovushi va Tt harflari” bilan tanishtirish va uni o`qishga o`rgatish darsi texnologiyasini keltiramiz:

Mavzu: “T” tovushi va Tt harflari

Maqsad: a) ta’limiy: “T” tovushi bilan tanishtirish. “Tt” harfining bosma va yozma shaklini ularga tushuntirish. So’z tarkibida t tovushini farqlashga o’rgatish. So’zning boshida, o’rtasida, oxirida kelishiga misollar keltirish.

b) **tarbiyaviy:** hayvonot olamiga mehr uyg`otish, tabiatni asrashga o`rgatish.

v) **rivojlantiruvchi:** so’zlarni bo’g’inlab o’qishga o’rgatish.

Dars turi: Yangi bilim berish

Dars metodi: Analitik-sintetik tovush metodi

Dars jihozi: Kitob, kesma alifbo, rasmlı ko’rgazma, harf kassasi.

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism.

- a) salomlashish;
- b) davomatni aniqlash;
- c) o’tirish qoidalari va o’quvchilarni nazorat qilish;
- d) o`quvchilarning darsga hozirligini aniqlash;
- e) haftaning kunlari nomini aytirish;
- f) tozalikka amal qilinganini aniqlash.

II. O’tilgan mavzuni so’rash va o`quvchilarning bilimlarini aniqlash

1. Uyga qanday vazifa berilgan? (Mm harfli bo`g`in, so`z, gaplarni o`qib kelish)

Bolalar sinfimizda kimning ismi M tovush-harfi bilan boshlanadi? (Mamlakat, Munira,)

2. M tovushi unlimi yoki undosh tovushmi?

3. Undosh tovush ekanligini qanday aniqladingiz? (m tovushi og'zimizda to'siqqa uchraydi, qisqa aytiladi)

III. Bo'g'in jadvalini o'qishni mashq qilish:

ma, mi, mo', me, man, nam, mon, nom, min, im,

IV. So'z o'qish.

mana	nom	Omon	Naima
nam	min	Omina	Mannon
onam	ona	amma	Naim

V. Matn o'qish va yod aytish.

-Ona, ana Naima ammam.

-Mannon, (sumka rasmi) _____ .

-Naima ammam (olma, uzum rasmi) _____ .

(Muzqaymoq rasmi) –Nomi nima?

VI. Maqolni yod aytish.

Ona bilan bola –

Gul bilan lola.

VII. "So'z zanjiri " o'yini.

Mm harflarini so'zning boshida, o'rtasida, oxirida kelishiga so'z topish.

Har bir qator M harfi bilan boshlanuvchi ismlarni ketma-ket aytadi.

VIII. "Kataklarni to'ldir" o'yini.

Mashina rasmi

--	--	--	--	--	--

Maymun rasmi

--	--	--	--	--	--

IX. Predmetning belgisini bildirgan so'zlarni topish.

Qanday? mashina: -Ko'k, chiroyli, kuchli, katta mashina.

Qanday? maymun: - Jigar rang, chaqqon, bahaybat, qo`rqinchli maymun.

X. Jismoniy daqiqa.

Derazani ochaman

Toza havo kirsin deb,

Gullarga suv quyaman

Yashnab, unib, o`ssin deb.

XI. Yangi mavzu.

1. Tt tovushi bilan tanishtirish.

Telefon rasmi ko`rsatiladi va nomi so`raladi.

Telefon so`zi bo`g`inga bo`ldiriladi va har bir bo`g`indagi tovushlar soni aniqlanadi.

--	--	--	--	--	--	--	--

So`zdagi t tovushi qisqa aytish yo`li bilan undagi t tovushining o`mi aniqlatiladi.

--	--

2. T tovushining talaffuzi ustida ishlash. T tovushi talaffuzi jarayonida uning to`siqqa uchrashi, qisqa aytilishi, shuning uchun undosh tovush ekani izohlanadi.

T tovushli so`z topish.

4. Tt harflari bilan tanishtirish. Kesma harf ichidan Tt harflari olib ko`rsatiladi.

Suhbat:

-Tt harflari qaysi harfga o`xshaydi?

-Undan nimasi bilan farq qiladi?

-Tt 1 harfida nechta element bor?

-Kesma harf ichidan Tt harflarini topib ko`rsating.

-Tt harfini "Harf kassasi"ga qo`ying.

5. T tovushli bo`g`in o`qish.

to, o`t, o`n, to`, te, o`t, ta, ti, tan, ...

6. So`z o`qish.

tom	tamom	ot	it
to-mon	ti-nim	o-ta	man-ti

7. Predmet rasmlari ustida ishlash. Ulardagi t tovushining o`rnini aniqlash.

Tovuq rasmi Tulki rasmi Tuya rasmi

8. Matn o`qish. Doskaga matndagi so`zlar bo`g`inlarga bo`lib yozib qo`yiladi.

A- na ot.

Ot _____ .
_____ .

Matn bilan rasm o`rtasidagi aloqadorlik ustida ishlash.

–Rasmda nima tasvirlangan?

-Rasmda rassom nimalarni tasvirlagan?

-Rassom qaysi ranglardan foydalangan? Nima uchun?

-Rasm asosida chiziqlar o`rniga so`z qo`yib o`qing.

-Tuzgan matningizning mazmunini so`zlab bering.

“Darvoza“ o`yini. Kesma bo`g`inlar asosida so`z tuzib darvozadan o`qib o`tishadi.

Krossvord yechish.

Eniga:

Yovvoyi hayvonlar yashaydigan joy.

Bo`yiga:

O`rmonda yashaydigan hayvon.

9. O`tilganlar yuzasidan umumlashtiruvchi suhbat.

-Bugun darsda nimalarni bilib oldingiz?

-Qaysi tovush va harf bilan tanishdingiz?”

-Uyda nima qilib kelasiz? T tovushli hayvon, parrandalar nomini topib kelish.

10.Darsda faol qatnashgan o`quvchilarni rag`batlantirish.

Savod o`rgatish davridagi har bir dars jarayonida nutq o`stirish ishiga alohida e`tibor qaratiladi. Shundagina o`quvchilarda adabiy nutq (shevalar ta`sirisiz, adabiy me`yor asosidagi nutq) ko`nikmalari shakllanadi va malakaga aylanadi. Savod o`rgatish davrida og`zaki nutqning to`g`ri bo`lishi uchun so`z tarkibidan r, l, s, z, y kabi tovushlar analitik yo`l bilan ajratib olinadi va talaffuzi mashq qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang`ich sinflarda o`qishning hamma turiga bir xil talab qo`yiladi, ya'ni o`qish to`g`ri bo`lishi, tez, ongli va ifodali bo`lishi zarur. O`quvchilarning o`qish sur`atini oshirish ustida 1,2-sinfda amalga oshirilgan metodik ishlar keyingi sinflarda davom ettiriladi

Savod o`rgatish davrida tovushlar bilan tanishtirishda analitik va sintetik mashqlardan foydalanish texnologiyalari bo`yicha olib borgan izlanishlarimiz asosida quyidagicha xulosaga keldik:

1.”Alifbe“ darsligidagi rasmlar va matnlar o`quvchilarning so`z boyligini oshiradi, nutq odobi kabi fazilatlarni shakllantiradi .

3. Savod o`rgatish davrida o`quvchilarni tovush - harf bilan tanishtirishga doir analitik mashqlarni tashkil etishning ahvolini qoniqarli deb bo`lmaydi. Shuning uchun kesma harf va kesma bo`g`in bilan ishlash texnologiyalarini ishlab chiqib amaliyotga tavsiya qilish maqsadga muvofiq.

3. Analitik-sintetik mashqlarni tashkil etish texnologiyalari asosida tashkil etilgan darslar o`quvchilarning bo`g`inlab o`qish ko`nikmalari shakllantirdi.

5. O`qish texnologiyalari o`qilayotgan matn mazmunining to`liq va ongli o`zlashtirishni ta`minlaydi.

2.3. Savod o`rgatish davrida o`quvchilarni unli va undosh tovushlarni to`g`ri talaffuz qilish va o`qishga o`rgatish darslarini tashkil etish bo`yicha olib borilgan tajriba-sinov ishlari mazmuni va ularning natijalari

Tadqiqot mavzusi yuzasidan dastlab metodik adabiyotlar, boshlang`ich sinf davlat ta`lim standarti, savod o`rgatish dasturi va “Alifbe” darsligi o`rganildi. Savod o`rgatish davrida o`quvchilarni unli va undosh tovushlarni to`g`ri talaffuz qilish va o`qishga o`rgatish, bu jarayonda pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahvoli aniqlandi.

Tadqiqotimizga doir dars namunalari Farg`ona viloyati Yozyovon tumanidagi 26-maktabda tajriba-sinovdan o`tkazildi. Tajribada 1- sinflardan jami 95 o`quvchi ishtirok etdi. Tajriba natijalarini quyidagi ko`rsatkichda ifoda etdik:

Biz taklif etgan texnologiyalar asosida mashg`ulotlar tashkil qilindi. Bu davrda quyidagi tajriba-sinov ishlari amalga oshirildi:

1. O`qituvchi va o`quvchilar faoliyati doimiy kuzatildi.
2. Dars ishlab chiqilgan tavsiyalar asosida tashkil qilindi.

Maxsus tavsiyalar asosida o`tkazilgan pedagogik tajribaning natijalari quyida keltirilgan va tahlil qilingan. Pedagogik tajriba boshlanishidan oldin tanlab olingan sinov sinflardagi o`quvchilarning o`qishi bilan oddiy sinflardagi o`quvchilarning o`qishi o`rtasida katta farq yuzaga keldi. Bular to`g`ri o`qib, o`qiganlari yuzasidan savollarga bergan javoblarida sezildi. Eksperiment sinflardagi o`quvchilarning maxsus mashqlar o`tkazilmagan paytdagi o`qish sur`atlari asosida olgan baholarini keltiramiz.

N	Maktab	Sinfi	O`quvchilar soni	O`zlashtirish darajasi				Sifat o`zlashtirish
				«5»	«4»	«3»	«2»	
1	18-maktab	1“A“	33	6	14	13		60%
2	25-maktab	1“A“	32	7	12	13	-	59 %
3	13-maktab	1“A“	30	7	14	9		70 %

Tajriba-sinov uchun tanlangan sinflarda o`quvchilarning o`qish ko`nikmalarini o`zlashtirish darajasi, darsga ishtiroki, darsdan tashqari o`qigan asarlari, qiziqishi aniqlab olindi. Bu yuqoridagi savollar asosida amalga oshirildi.

O`quv yili boshidan o`qituvchilarga har bir bolaning o`qishini sinchiklab o`rganish, alifbe darslarida biz bergan tavsiyalar yordamida mashg`ulotlarni tashkil etish topshirildi. Har bir bola bilan individual ishlash amalga oshirildi. O`quv yili oxirida tajriba-sinov ishlaridan so`ng o`quvchilarning o`qish ko`nikmalari aniqlandi va ular jadvalda quyidagi ko`rinishga ega bo`ldi.

N	Maktablar	Sinfi	O`quvchilar soni	O`zlashtirish darajasi				Sifat o`zlashtirish
				"5"	"4"	"3"	"2"	
1	18-maktab	1“A“	33	13	14	6	-	81,8 %
2	26-maktab	1“A“	32	14	13	5	-	84%
3	13-maktab	1“A“	30	11	15	4	-	86,6 %

O`quv yili davomida alifbe darslari texnologiyalar asosida talab darajasida tashkil etildi. O`quvchilarning ishtiroki, faoliyati o`rganib borildi.

O`quvchilarning o`qishga munosabati o`zgardi. O`quv yili oxirida badiiy asar o`qishga qiziquvchilar soni 79 taga yetdi.

Quyida biz tajriba-sinovdan o`tkazgan dars ishlanmalarimizni keltiramiz:

Darsning mavzusi. K tovushi va harfi.

Darsning maqsadi:

a) **ta'limiy maqsad:** o`quvchilarni k tovushi va Kk harfi bilan tanishtirish, bu tovushni to`g`ri talaffuz qilish ko`nikmalarini shakllantirish, Kk harfi bilan tanishtirish, Kk harfli bo`g`inlarni va so`zlarni ravon o`qishga, kesma harflar va bo`g`inlar vositasida so`zlar tuzish va ularni o`qishga o`rgatish;

b) **tarbiyaviy maqsad:** kattalarni hurmat qilish va tartib-intizomli bo`lishga o`rgatish, axloqiy xislatlarni singdirish;

v) **rivojlantiruvchi maqsad:** o`quvchilarning bo`g`inlab o`qish ko`nikmalarini shakllantirish, fikrlash qobiliyatlarini, nutqini o`stirish.

Darsning metodi: analitik-sintetik tovush metodi.

Dars turi: yangi tovush-harf o`rganiladigan o`qish darsi.

Darsning jihozi: Kk harfining bosma va yozma shakllari chizilgan ko`rgazma, "kitob", "maktab", "terak" so`zlari yozilgan kartochkalar, turli xil predmetlar, matnga oid rasmlar, harf kassasi, kesma harf va bo`g`inlar.

DARSNING BORISHI:

I. Tashkiliy qism:

- a) salomlashish;
- b) davomatni aniqlash;
- v) kirish suhbat:
 - Bugungi sanani ayting.
 - Hozir qanday fasl?
 - Kuz faslida qanday o`zgarishlar bo`ladi? va hokazo.



II. O`tgan mavzuni mustahkamlash. Bunda bolalar bilan rasm asosida suhbat tashkil qilinadi:

- Rasmdagi bolalarning ismlari nima ekan?

- Tolib va Bilol.
 - Bilol qanday bola ekan?
 - U bilimli bola ekan.
 - Buvisi Tolibga nima deyapti?
 - U Tolibga ham bilim olish kerakligini aytayapti.
 - Nima uchun bilim olish kerak ekan?
 - Chunki bilimli har jihatdan kuchli bo`ladi, uni hamma hurmat qiladi.
- Shundan so`ng har bir o`quvchiga matn va so`zlar birma-bir o`qitiladi.


III. Yangi mavzuning bayoni: Bunda dastlab kitob, kaptar, kapalak kabilarning rasmlari ko`rsatilib, o`quvchilardan ularning nomlari so`raladi. Bu predmetlar nomining bosh harfi **k** ekanligi ta`kidlanadi va u bilan tanishtiriladi.

Bunda **kapalak** rasmi asosida suhbat uyushtirilib, quyidagi savol va topshiriqlar bilan o`quvchilarga murojaat qilinadi:


- Bu nima?
- Rangi qanday kapalak?
- Qanotlarining ko`rinishini tasvirlab bering.
- Tasvirlashda qaysi so`zlardan foydalandingiz?
- Kapalaklar qancha umr ko`radi deb o`ylaysiz?
- Kapalak so`zini bo`g`inlarga bo`ling va nechta bo`g`in ekanini chizmada tasvirlab bering. ()
- Birinchi bo`g`inni ayting. (ka)
- Birinchi bo`g`inda nechta tovush bor? Uni katakchalarda ifodalang. ().

Qolgan bo`g`inlar ustida ham shu tarzda ishlanadi.

Kapalak so`zining bo`g`in-tovush tuzilishi chizmada shakllantiriladi:



O`qituvchi ushbu darsda o`rganiladigan tovush katakchasini belgilab qo`yadi:



So`ngra savol beriladi:

– Bugun qanday tovush bilan tanishar ekansiz? (K tovushi bilan)

K tovush-harfni o`rgatishda quyidagicha ish turlaridan foydalanish mumkin:

1. K tovushining talaffuzi va belgilari ustida ishlash.

– K tovushi qanday talaffuz qilinayapti? (qisqa)


– Nima uchun?

– K qanday tovush? Nima uchun?

K tovushining undosh ekanligi aniqlangach, bu tovush namuna tarzida talaffuz qilib ko`rsatiladi, o`quvchilar uni takrorlaydilar. Shu jarayonda o`quvchilar barcha o`tilgan harflarni birgalikda ovoz chiqarib aytadilar.

2. K tovushli so`zlar topish va uning so`zdagi o`rnini aniqlash.

3. Kk harflari bilan tanishtirish. Bunda quyidagi chizmadan foydalanish mumkin:



Topshiriq: Tanish harflarni o`qing. Harflar ichidan o`zingizga notanish harfni toping.

So`ngra Kk harflari kesma harflar ichidan toptiriladi:

– Bosh K harfini ko`rsating. U bilan qanday so`zlar yoziladi?

– Kichik k harfini ko`rsating. Bu shakl qachon ishlatiladi?

Kk harflari “harf kassasi”ga qo`shib qo`yiladi.

4. Bo`g`in o`qish. Bunda k harfini o`rganilgan unli harflarga qo`shib bo`g`inlar tuzdiriladi va o`qitiladi.

5. Rasm asosida suhbat. Bunda o`qituvchi ko`rgazmani harakatlanadigan qilib tayyorlasa, o`quvchilarda qiziqish uyg`onadi, yangi mavzu oson o`zlashtiriladi.

Xattaxtaga bosma harflar bilan quyidagi matn yoziladi:

Kamol Komilaga kitob olib keldi. Komila kitobni oldi. U kitobni toza saqlashga so`z berdi.

Bu gaplar bolalarga bo`g`inlab o`qitiladi. O`quvchilar nutqini o`stirish maqsadida quyidagi savollar beriladi:

1. Kamol kitobni qayerdan olgan?
2. U kitobni kimga sovg`a qildi?
3. Komila nega xursand bo`ldi?
4. Komila akasiga qanday va`da berdi?

Kartochkalarga yozilgan bo`g`inli so`zlar o`qitiladi.

6. Darslik bilan ishlash. Bunda o`qituvchi darslikda berilgan bo`g`inlar, so`zlar va matnni o`quvchilarga o`qib beradi, bolalar birgalikda ovoz chiqarib takrorlaydilar.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash. Buning uchun o`quvchilar bilan quyidagicha savol-javob o`tkaziladi:

1. Bugun biz qaysi tovush bilan tanishdik?
2. Rasmda nimalar tasvirlanibdi?
3. Bolalarning ismlari nima ekan?
4. Kitobdan qanday foydalanish kerak?

Kichik yoshdagi maktab o`quvchilarining nutqini o`stirishda didaktik o`yinlar, turli xil musobaqalar muhim ahamiyat kasb etadi. SHu jihatdan mavzuni mustahkamlashga oid quyidagicha qatorlar aro musobaqa uyushtirish mumkin:

- 1-qator: “K” harfi bilan boshlanadigan so`zlardan ayting.
- 2-qator: O`rtasida “k” harfi qatnashgan so`zlardan ayting.
- 3-qator: Oxirida “k” harfi ishtirok etgan so`zlardan ayting.

Bunda qaysi qatorda takroriy so`zlar bo`lmasa, o`sha qator g`olib hisoblanadi. So`ngra o`quvchilarning har biriga bittadan turli xil predmetlarning

rasmlari bor kartochkalar tarqatiladi. Rasmdagi predmetning belgilarini bildiruvchi soʻzlar toptiriladi va ular ishtirokida ikkitadan gap tuzdiriladi. Birgina rasm asosida bir necha gap tuzishni mashq qildirish oʻquvchilarning fikrlash doirasini kengaytirishga ham yordam beradi va nutqini oʻstiradi.

V. Dars yakuni. Bunda faol ishtirok etgan oʻquvchilar ragʻbatlantiriladi, uyga vazifa beriladi.

1-sinfning 2-yarim yilligida “Oʻqish kitobi“ materiallari asosida oʻquvchilarning oʻqish surʼati ustida ishlanadi. Oʻqish darslarida matn ustida olib boriladigan har bir ish oʻquvchilarning oʻqish koʻnikmalarini shakllantirishga qaratiladi. Oʻquvchilarning oʻqish surʼatini oshirish uchun birinchi navbatda toʻgʻri oʻqish koʻnikmalari shakllantiriladi, ikkinchi oʻrinda oʻqish surʼati oshiriladi. 1-sinfda oʻqish surʼatini oshirishda quyidagi ishlar amalga oshirildi:

1. Turli topshiriqlar asosida oʻqishni mashq qildirdik. Masalan:

-Sheʼni ifodali oʻqing.

-Tabiat tasvirlangan oʻrinni topib oʻqing.

-Amur Temur yurtini qanday eʼzozlagan? Shu oʻrinni topib oʻqing.

(“Buyuklar Vatani“)

-Ravshan “Jar“ sport saroyida nimalarni koʻrdi? Shu oʻrinni topib oʻqing.

(“Ulkan hovuz“)

2. Boʻgʻin tuzilishi marakkab soʻzlarni boʻgʻinlarga boʻlib doskaga yozdik va oʻqishni mashq qildirdik. Masalan:

“Ona allasi“ matnida:

qoʻ-shiq-chi-lar-ni, mam-la-kat-da-chi, et-ti-ra-ve-rib-di;

“Navroʻz bayrami“ matnida:

Boy-che-chak-lar, o-na-la-ri-miz, ya-ra-sha-di-lar, u-rish-gan-lar kabi

3. Oldin oʻzim oʻqib namuna koʻrsatdim, soʻng tez oʻqiydigan oʻquvchilarga oʻqitdim, keyin sekin oʻqiydigan oʻquvchiga oʻqitdim.

4. Tez aytish aytirib, soʻng oʻqitdim. Quyidagi tez aytishlardan foydalandim:

Dildora – Dinoraning dugonasi,

Dinora - Dildoraning dugonasi.

Oydin oydingda onasidan oldin bordi.

1-sinfda modul asosida ishlab chiqqan va tajriba sinovdan o'tlazgan dars namunamizni keltiraman:

Mavzu: O'zbek xalq ertagi "Rostgo'y bola".

Maqsad: To'g'ri, tez va ifodali o'qish malakalarini takomillashtirish.

Matn ustida ishlash, tahlil qilish ko'nikmasini mustahkamlash, o'quvchilarning lug'at boyligini oshirish.

O'quvchilar shaxsida to'g'ri so'zlik, rostgo'ylik kabi ijobiy sifatlarni tarbiyalash.

Darsning borishi:

Darsning shiori: Biz nimaiki qilmaylik,

Barchasi zarur, kerak.

Bilim egallash uchun

Tinimsiz o'qish kerak.

1 – modul.

Uyga vazifani tekshirish.

"Maymun va duradgor" haqidagi ertak. Xattaxta oldiga ikki o'quvchi chaqiriladi va ular galma-galdan ertakni o'qib, mazmunini so'zlaydilar. Duradgor kim? U nima ish qiladi? degan savol beriladi va o'quvchilarning javoblari to'ldiriladi

2 – modul.

Quvnoq daqiqa.

O'qituvchi: Yaxshi o'qish uchun, yaxshi nafas olish kerak.

1) Nafas olishga doir mashqlar:

"Choyni sovut"

"Gulni hidla"

"Sharni shishir"

"Changni hayda".

2) Ovoz mashqi: tovush mashqi: a, o, u, e, i, o'.

Quyidagi she'rni eshitib bugun qanday mavzu bilan tanishishimizni bilib olarsiz. Yaxshilab e'tibor qiling:

To`g`ri so`z bola. H.H.Niyoziy.

(Qisqartirilgani)

Kelmog`ida maktabidan bir o`g`il,

To`xta debon ikki kishi to`sdi yo`l.

Dedi biri: "Tanga berurman sanga

So`zla bir og`izgina yolg`on manga"

Berdi o`g`il fikr ila shirin javob:

"So`zlang ako, qomatingizga qarab,

Bu so`zingiz aslida yolg`on erur

Tangaga yolg`onni kim olg`on erur".

Quyidagi skanerga qarab bugungi o`rganadigan mavzumiz nomini va unga doir so`zlarni toping.

						,			
						a	,		
		o		,					
				h					
	,							u	,
			,			g			
		,							
								,	
,									

- rostgo`y (5 ta), bola (3 ta), yolg`on, tanga, kishi, ako, maktab, so`zingiz, og`izgina, sanga, kim.

3 – modul.

Skandagi so`zlarni qatnashtirib gaplar tuzing: Bir og`izgina yolg`on, rostgo`y bola, yolg`onchi kishi, sanga tanga berurman, dedi va b. Kimlar shu so`zlar vositasida ertak tuzib beradi. Bolalar o`zlaricha tuzgan ertaklarini so`zlab beradilar.

Bugungi o`tdigan ertagimiz nomini topdingizmi? Bolalar aytadilar (Bo`lmasa o`qituvchi ertak nomini aytadi: “Rostgo`y bola”). Kelinglar endi ertakni eshitib ko`ramiz. Unda ba`zi notanish so`zlarga duch kelasizlar. Ularning mazmunini sizlarga tushuntiraman: (xattaxtaga oldindan yozib qo`yilgan bo`lishi ham mumkin).

Podshoh – yurtni boshqaruvchi kishi.

Vazir – podshohning yordamchisi.

Tadbir – o`ylab qilingan ish.

Xomush – xafa.

4 – modul.

Ertakni o`qituvchi tomonidan o`qish, ma`lum bir qismini o`quvchilar davom ettirishi mumkin.

-Siz yolg`on gapirgan bolalarni hayotda uchratganmisiz? (O`quvchilar javoblari eshitaladi.) Rost gapirishning ahamiyatini bilasizmi? O`qituvchi rost gapirishning ahamiyati haqida o`quvchilarning yoshiga mos tushuncha beradi va xalq maqollaridan aytadi (Masalan, “Boshingga qilich kelsa-da, rost gapir” ... qolganini o`quvchilar davom ettiradilar).

5 – modul.

Mustaqil o`qish.

Usul: o`qituvchi o`quvchilar bilan birga ovoz chiqarib o`qiy boshlaydi (o`quvchilar faqat ko`z bilan o`qiydilar), o`qituvchi jim bo`lib, o`qishni ichida davom ettiradi, o`quvchilar esa ovoz chiqarib o`qiydilar, keyin yana o`qituvchi

ovoz chiqarib o`qiydi, o`quvchilar ko`z bilan o`qiydilar va shunday o`qish ertak oxirigacha davom etadi.

O`qish oldidan topshiriq: xattaxtaga yozilgan so`zlarni ertakda berilganday izchillikda, so`zlar qo`shib yozing:

1. Qadimda.
2. Podshoh bo`lgan.
3. Xomush bo`lib yurgan.
4. Vazirning maslahati.
5. Gul urug`i.
6. Farzand qilib olmoqchi.
7. Vaqt o`tibdi.
8. Shahar aylanibdi.
9. Gullarni ko`rib o`taveribdi.
10. Ko`zi tushibdi.
11. Gullar qani?
12. Qaynattirgan.

6 – modul.

Matnni tahlil qilish uchun savollar.

-Ertak qahramonlari kimlar?

-Quyidagi so`zlar kim haqida yozilgan: xomush, farzandi yo`q, gul urug`i tarqattiribdi. (Podshoh)

-Yaxshi farzand topish yo`lini ertak qahramonlaridan kim maslahat beribdi? (Vazir)

-Qanday yo`l bilan rostgo`y, aqlli bola tanlandi?

-Keyin nima bo`ldi?

-Podshoh gul urug`ini nima qilgan ekan?

Quyidagi hikmatli so`zlardan qaysi biri ertak mazmunini to`ldiradi?

1. Boshingga qilich kelsada rost gapir.
2. Yolg`onning umri qisqa.
3. Boshingga nima kelsa tilingdan kelur.

4. To`g`rilik baxt keltirar.

(To`g`ri gapirgani uchun bola podshohga farzand bo`ldi.)

Markazlarda ishlash.

Sinf jamoasi 5-7 kishidan tahlilchilar, o`quvchilar, tilshunoslar, tadqiqotchilar (boshqalar ham bo`lishi mumkin) kabi guruhlarga bo`linib markazlarda ishlaydilar.

O`qish markazi: “kitoblar olami”.

1-guruh – o`quvchilar.

Topshiriq: Ertakdagi ko`rsatilgan qismni o`qib, uni tiklash (Ertak kserokopiya qilinib, 7 qismga bo`linadi. Har bir qismi kamalakning bir rangiga mos keladigan rangdagi qog`ozlarga yopishtiriladi. O`quvchilar bo`lingan matnni tiklab, to`liq javobni va kamalak rangini hosil qiladilar).

2-guruh – tahlilchilar.

Topshiriq: ijodiy daftarda ishlash (matnga savollar qo`yish).

Yozuv markazi: “Ijodiy ish”.

Har bir o`quvchining daftarida qahramonlar xislatlariga tegishli so`zlar yozilgan: farzandi yo`q, xomush, ko`p bolalarni ko`rdi, gulsiz tuvak ushlab o`tirgan bolakay.

Topshiriq: Qahramonlarga taalluqli xislatlarni o`qib, kimga tegishliligini ayting. Ertak qahramonlaridan kimga tegishli gap yo`qligini aniqlang (vazirga tegishli gap yo`q). O`zingiz tanlang.

Ilmiy-tadqiqot markazi.

Topshiriq: Ertakdagi qahramonlarga doir sifatlarni, ularga taalluqli sifatlarni qahramon nomi bilan birga yozing va o`qing.

Natijada quyidagi jadval hosil bo`ladi:

Xomush podshoh.

Aqlli vazir.

Rostgo`y bola.

Yolg`onchi bolalar.

Gulsiz tuvak.

Prezentatsiya:

Har bir markazdan bir bola chiqib, o`z ishlarining yakuni haqida so`zlaydilar.

O`qituvchi: Qarang xattaxtamizda

Hosil bo`ldi kamalak.

Quvonchimiz cheksizdir

Chunki baxtlimiz beshak!

Uyga vazifa.

Har bir guruhga tegishli vazifalar alohida-alohida aytiladi. (Bular ijodiy daftarda ishlash, diafilmlar tuzish, matndan boy g`oyalarni ajratib yozish, ertakdan olgan taassurotlari asosida rasm chizish va h.)

Darsni xulosalash.

-Bu darsdan qanday yangilik o`rgandingiz? Sizga nima yoqdi? Nima sizga yoqmadi? Siz qanday bo`lishini xohlar edingiz?

Dars davomida qilingan barcha ishlar o`qish ko`nikmalarini takomillashtirishga va o`qish sur`atini oshirishga xizmat qildi.

UMUMIY XULOSA

Bitiruv malakaviy ishga doir nazariy ma'lumotlarni o'rganish va amaliy xolatini aniqlash, internet tizimidagi ma'lumotlarni tahlil qilish natijasida quyidagi yakuniy xulosalarni chiqardik:

1. Har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quv yili boshlanishidan oldin "Alifbe" darsligi bilan tanishib, savod o'rgatish jarayonidagi yangilik, o'zgarishlardan xabardor bo'lishi kerak.
2. Jadidlardan S. Saidazizov, M.Behbudiy va A.Avloniyalar xalqni savodini chiqarishga moslab darsliklar yaratishgan.

Birinchi marta tovush metodi asosida toshkentlik Saidrasul Saidazizov 1902 yilda "Ustodi avval" ni yaratdi. "Ustodi avval" nashr qilingandan keyin o'zbekcha xat- savod o'rgatishda yangi davr boshlandi. Tovush metodi savod o'rgatishning eski usulidan tamomila farq qilib, o'qitishni osonlashtirdi, ta'limni bola tushunadigan, angelaydigan ta'limga, faol ta'limga aylantirdi.

"Ustodi avval" 3 bo'limdan iborat: 1-bo'lim, hozirgi atama bilan ataganimizda, alifbe davridir.

3. Har bir inson hayotida savod o'rgatish jarayoni ham nazariy ham amaliy ahamiyatga ega muhim davrdir. Savod o'rgatish murakkab jarayon bo'lib, unda asosiy o'quv manbaa "Alifbe" darsligidir. 2010-2017- yillarda nashr qilingan "Alifbe" darsligi davr talabiga mos takomillashib, juz'iy va metodik xatolar tog'rilangan.

4. "Alifbe" darsligida jami-29 ta harf, 30 ta tovush haqida ma'lumotlar berilgan bo'lib, tovush -harflar quyidagi tartibda berilgan:

O,n,a,i,m,t,l,b,k,r,o',d,u,y,e,g,ng,s,h,sh,p,q,ch,j,g',z,v,x,f,'(tutuq belgisi).

Darslikda unlilar quyidagi tartibda:o,a,i,o',u,e;

Undoshlar: n,m,t,l,b,k,r,d,y,g,ng,s,h,sh,p,q,ch,j,g',z,v,x,f.

Sonor tovushlar-n,m kabilar bilan bo'g'in xosil qilish bolalarga yengilroqligi xisobga olingan.

5. Birinchi sinflarda tovushlarni o`rgatish - tovushni harfga, harfni tovushga aylantirish - aqliy faoliyat murakkab jarayon bo`lib, uni tovushni harfga, harfni tovushga «tarjima qilish» deb tushunish kerak. O`qitishning bu usuli tahlil-tarkib tovush metodi asosida amalga oshiriladi.

6. Analitik-sintetik (tovush-tarkib) tovush metodiga K.D.Ushinskiy asos solgan bo`lib, S.P. Redazubov tomonidan mukammal ishlangan. Bu usul o`zbek olimlaridan K. Abdullayeva, K.Qosimova, Y.Abdullayeva tomonidan yoritilgan. Bu metod hozirgi kunga qadar ancha takomillashdi. Tahlil- tarkib tovush metodi deganda nutqdan gapni, gapdan so`zni, so`zdan bo`g`inni, bo`g`indan so`z, so`zdan gap, gapdan nutq anglashiladi.

Maktab ta`limida qator fanlarni o`zlashtirishda o`quvchining matnlarni ravon, tez o`qishi hal qiladi. O`quvchi savod chiqarish davrida har bir harf-tovushni o`zlashtirgan bo`lsa, to`g`ri, ravon, ongli o`qish malakalarini egallasa, tushunib o`qish malakasiga ega bo`ladi.

7. "Alifbe" darsligidagi "tovush -harf" lar ta`lim tamoyillariga rioya qilingan holda soddadan murakkabga tomon berilgan. Dastlab unlilar (o,a), sonor undosh tovushlar (n,m), tarzida ilmiylik, izchillik, ko`rgazmalilik, tushunarlik, mustahkamlilik kabi ta`lim prinsiplariga rioya qilingan holda, barcha bosqichga mos nazariy ma`lumot va amaliy ko`nikma hosil qiladigan topshiriqlar berilgan.

8. Savod o`rgatishda analiz-sintez bir-biridan ajratilmaydi, chunki analiz o`qish jarayonini egallash uchun zamin yaratadi, sintez esa ko`proq o`qish malakasini shakllantiradi.

9. "Alifbe" darsligi orqali o`quvchilarga ona tilining fonetika, orfografiya, leksikologiya, orfoepiya kabi bo`limlariga doir ilk tushunchalar o`rgatiladi. Darslik asosida bolalarda tarbiyaning barcha turlari: ma`naviy-axloqiy, estetik, ekologik va iqtisodiy kabilar rivojlantiriladi.

10. "Alifbe" darsligidagi rasmlar va matnlar o`quvchilarning so`z boyligini oshiradi, nutq odobi kabi fazilatlarni shakllantiradi .

11. Savod o'rgatish davrida o'quvchilarni tovush - harf bilan tanishtirishga doir analitik mashqlarni tashkil etishning ahvolini qoniqarli deb bo'lmaydi. Shuning uchun kesma harf va kesma bo'g'in bilan ishlash texnologiyalarini ishlab chiqib amaliyotga tavsiya qilishi maqsadga muvofiq.

12. O'quvchilarni o'qishga o'rgatish, ularning o'qish sur'atini oshirish, ifodali va ongli o'qish elementlarini shakllantirish, tarbiyalash o'qish darslarining muhim vazifalari hisoblanadi.

13. Diksiya ustida ishlash texnologiyasidan foydalanish yaxshi samara beradi: 1. Baland talaffuzni mashq qilish. 2. Talaffuz tempini mashq qilish. 3. Ayrim undosh tovushlarni, ayniqsa, o'quvchilar qiyinchilik bilan yoki noto'g'ri talaffuz qiladigan so'zlarni qayta talaffuz qilish. 4. Murakkab tovush birikmalarini talaffuz qilish.

14. Analiz mashqlari bilan o'qishga o'rgatishda kesma bo'g'inlar bilan ishlash texnologiyasi o'qituvchi ancha yengillik beradi va ko'rgazmalilikni ta'minlaydi.

15. Sintez mashqlari tashkil etish texnologiyasi o'quvchilarning o'qish ko'nikmalarini shakllantirishga katta yordam beradi.

Chiqarilgan xulosalarga tayangan holda quyidagi uslubiy tavsiyalarni ilgari surishga imkon yaratildi:

1. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari unli va undosh tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish va o'qishga o'rgatish metodikasiga doir ma'ruzalar, trening, seminarlar tashkillash;

2. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun "Unli va undosh tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish va o'qishga o'rgatishning nazariy va amaliy ahamiyati" mavzusida uslubiy qo'llanma yaratish;

3. Maktadagi uslubiy birlashmalarda unli va undosh tovushlarni o'rgatishga doir videolavhalar va multimedialarni targ'ib qilish;

4. Mahoratli, tajribali o'qituvchilar va yosh o'qituvchilar o'rtasida ustoz-shogird tizimini yanada shakllantirish;

5. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini savod o'rgatish jarayonlarini kuzatib, "Eng mahoratli o'qituvchi" konkursini tashkillash;

6. Bo`lajak o`qituvchilar va boshlang`ich sinf o`qituvchilari bilan “Alifbe darsligini o`rganamiz “ mavzusida ilmiy maqola, tezislar yozish;

7. Pedagoglarni bajargan ishlarini tahlil qilishga, umumlashtirishga va korreksiya etishga (to`g`rilashga)o`rgatish.

8.O`quvchilarning o`qishga o`rgatishda quyidagi mashqlar turlari texnologiyalaridan foydalanish lozim:

1) badiiy matndagi ma`nosi notanish so`zlarning ma`nosini izohlash va o`qishni mashq qilish texnologiyasi;

2) bo`g`in tuzilishi murakkab so`zlarni doskaga yoki kartonga bo`g`inlab yozib qo`yish va o`qishni mashq qildirish texnologiyasi;

3) turli topshiriqlar asosida o`qishni mashq qildirish texnologiyasi;

4) 1-sinfda xo`r bo`lib o`qish texnologiyasidan foydalanish;

5) rollarga bo`lib o`qitish: oldin tez, keyin sekin o`qiydigan o`quvchilar ketma – ketligiga e`tibor berish texnologiyasi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Abdullayev Y. Hamrohim. - Toshkent: O`qituvchi , 1996 yil.
3. Abdullayeva Q. va boshqalar. Savod o`rgatish darslari. -T.:O`qituvchi , 2012 y.
4. Fuzailov S., Xudoyberganova M. Ona tili. 3-sinf darsligi.
Toshkent:O`qituvchi , 2017 y.
5. Ikrova R., G`ulomova Ona tili” 4-sinf darsligi. Toshkent:O`qituvchi, 2017y.
6. Maqulova B., va boshqalar. Sinfdan tashqari o`qish mashg`ulotlari.
-T.: O`qituvchi , 1996-yil.
7. Qosimova K., Matjonov S., G`ulomova X., Yo`ldosheva Sh., Sariyev Sh.
Boshlang`ich sinflarda ona tili o`qitish metodikasi. -T.: TDPU, 2009
8. Qosimova K., Fuzailov.S., Ona tili 2-sinf darsligi. Toshkent: Cho`lpon, 2017
9. Tarbiya . O`zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent,2010.
10. Safarova R., Inoyatova M., Shokirova M., Shermamatova L., Alifbe
1-sinf uchun darslik. Toshkent: Ma'naviyat, 2017y.
11. G`afforova. T., Shodmonov.E., Ona tili .1-sinf darsligi. Toshkent, 2017y.
12. Gafforova T., Gulomova H., Eshturdiyeva M., 1-sinfda savod darslari
Toshkent: Sharq, 1998 y.

INTERNET MANBAALARI

1. ww/pedagog/uz .

2. w.w.w.ziyo.net

3. www.gov.uz

4. <http://www.edu.uz>

5. <http://vak.uz>